جديد

2026-yil 20-noyabr
№ 47 (151)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, işda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

YETTIKUNLIK

ÖMONDAN TO NAMANGANGAÇA



Ötayotgan hafta mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim voqealarga boy bölib, xalqaro diplomatiyadagi tarixiy burilişlar, hududiy taraqqiyot hamda zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarini qamrab oldi. Prezident Şavkat Mirziyoyev raisligida ötkazilgan yiğilişlar hamda xorijga amalga oşirilgan davlat taşrifi Özbekistonning ham milliy, ham xalqaro maydondagi izçil rivojlaniş yölini yaqqol namoyon etdi. Haftaning asosiy voqealarini törtta ustuvor yönaliş kesimida tahlil qiliş mumkin.

UMMONGA YÖL

Davlatimiz rahbarining 16-17-noyabr kunlari Ömon Sultonligiga amalga oşirgan davlat taşrifi ikki tomonlama munosabatlarni rasman strategik şeriklik darajasiga kötardi. Sulton Haysam bin Toriq Ol Said bilan muzokaralar yakunida imzolangan Strategik şeriklik töğrisidagi bitim hamda vizasiz rejim, imtiyozli savdo va sanoat kooperatsiyasiga oid 30 dan ortiq hujjat hamkorlikning yangi bosqiçini boşlab berdi. Masqatda imzolangan Strategik şeriklik töğrisidagi bitim ikki davlat munosabatlarini oddiy döstona hamkorlik maqomidan tizimli va uzoq muddatli darajaga kötargan tarixiy hujjat böldi.

Strategik şeriklik Özbekistonga Hind ummoniga logistika yölagi orqali töğridan-töğri çiqiş imkoniyatini ham beradi. Özbekiston uçun Ömonning Sohar, Duqm va Salala portlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bitim doirasida Sohar erkin iqtisodiy zonasida logistika markazi va qöşma kompaniya tuzilişi özbek mahsulotlarining Körfazdagi arab mamlakatlari, Hindiston, Janubiy Osiyo va Şarqiy Afrika bozorlariga eng qisqa va arzon yöl bilan çiqişini ta’minlaydi. Şuningdek, “Özbekiston – Ömon investitsiya kompaniyasi” kapitalining 500 million dollarga yetkazilişi 5 milliard dollarlik loyihalar paketini real moliyaviy manba bilan ta’minlaydi. Bu mablağlar sanoat, toğ-kon, kimyo va infratuzilma obyektlariga bevosita yönaltiriladi.

“Yangi Toşkent”da ömonlik sarmoyadorlar iştirokida “Masqat” zamonaviy mavzesi barpo etilişi quriliş sohasiga yangi investitsiya va ilğor arab me’morçiligi texnologiyalarini olib keladi. Ikki davlat fuqarolari uçun viza talabi bekor qilingani va töğridan töğri aviaqatnovlar yölga qöyilgani sababli, sayyohlar, ziyoratçilar, tadbirkorlar va talabalarning harakatlanişi osonlaşadi.

Iqlimi qurğoqçil va qişloq xöjaligi mahsulotlarining aksariyatini import qiluvçi Ömon uçun Özbekiston sifatli meva-sabzavot, poliz, dukkakli mahsulotlar va qayta işlangan oziq-ovqatni barqaror yetkazib beruvçi işonçli hamkorga aylanadi. Ömonning xomaşyo va kapitalini Özbekistonning sanoat hamda muhandislik bazasi bilan birlaştirib, elektrotexnika, toğ-kon va hatto, kosmik sohalarda qöşma korxonalar tuzişdan har ikki tomon ham manfaat köradi. Bitimning haqiqiy qiymati şundaki, u ikki mamlakat taraqqiyotini yillar va ön yilliklar davomida özaro manfaatli umumiy iqtisodiy zanjir orqali boğlaydi. Şuningdek, Özbekiston va Ömon örtasida sanoat kooperatsiyasi, moliya va iqtisodiyot, imtiyozli savdo, erkin iqtisodiy zonalar, bojxona, transport-logistika, kommunikatsiyalar va axborot texnologiyalari, uy-joy va şaharsozlik, oziq-ovqat xavfsizligi, soğliqni saqlaş, atrof-muhitni himoya qiliş, mehnat va inson resurslari, ta’lim, madaniyat va sport, boşqaruv va davlat xizmati, arxivlaştiriş hamda boşqa sohalar böyiça qabul qilingan 30 dan ziyod hujjat ham döstona munosabatlarni yangi bosqiçga olib çiqadi.

(Davomi 2-sahifada).

YORUĞ XOTIRALAR



Şaxmat abadiydir,
şe’r ham abadiy,
Yuriş tugamas-u
söz bölmas tamom.
Şaxmat taxtasida,
şe’r maydonida
Ğoyalar kurași
etadi davom...


Erkin VOHIDOV

Şaxmat ham, şe’r ham abadiy...

Bugun el-yurtimiz köhna va navqiron Samarqand şahrida bölib ötgan 46-Butunjahon şaxmat olimpiadasida erişilgan tarixiy ğalaba şukuhi bilan yaşamoqda. Vatanimizning mohir şaxmatçilari 200 dan ziyod mamlakatdan kelgan 2 mingga yaqin eng kuçli va maşhur grossmeysterlar, nomdor jamoalar iştirok etgan murosasiz bellaşuvlarda yuksak iroda va aql-zakovatini namoyiş etib, ikki karra olimpiada çempioni degan şarafli unvonni qölga kiritdilar. Mana şunday quvonçli lahzalarda Yangi Özbekistonning şijoatli yoşlari uçun çinakam ibrat va namuna bölmiş uluğ zotlarimiz xotiralarini ehtirom bilan yodga oliş örinlidir.

(Davomi 7-sahifada).

ADIB KUTUBXONASI



ULKAN XAZINA

(3-sahifada öqing).

FAN VA HAYOT

IZLANIŞDAN NATIJAGA



Özbekistonda xizmat körsatgan ixtiroçi va ratsionalizator Mirtemir QURBONOV bilan suhbat

E’TIROF – ŞARAF VA MAS’ULIYAT

Joriy yil Öqituvçi va murabbiylar kuni munosabati bilan yuksak davlat mukofoti – “Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan ixtiroçi va ratsionalizator” faxriy unvoniga loyiq körildim. Davlatimiz tomonidan köp yillik mehnatimizning e’tirof etilişi, bir tomondan, katta şaraf bölsa, ikkinçi tomondan, yanada jiddiy mas’uliyat yuklaydi. Bu e’tirof nafaqat mening, balki ÖzFA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti ilmiy jamoasining ham-jihatlikdagi mehnatlari hosilasidir. Çunki ilm-fanda katta natijalarga bir kişining sa’y-harakati bilan emas, balki butun jamoaning izlanişlari orqali erişiladi. Ilmiy natijalarni qölga kiritiş uçun köplab tadqiqotlar va tajribalar ötkaziş, ularning natijalarini tahlil qiliş talab etiladi.

Şu ma’noda, uşbu faxriy unvonni hamkasblarim bilan birgalikda olib borgan izlanişlarimizga berilgan yuksak baho sifatida qabul qilaman. Bu e’tirof kelgusida ham ilm-fan rivoji va mamlakatimiz taraqqiyoti yölida yanada samarali işlaşga undaydi.

(Davomi 5-sahifada).

FAKT

- **Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 19-noyabr kuni Turkiya Respublikasi Vitse-prezidenti Javdat Yilmaz boşçiligidagi delegatsiyani qabul qildi.**
- **Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva “Aman Group” raisi Vladislav Doronin hamda “Capital Group” direktorlar kengaşi raisi Pavel Tyo bilan Buxoroda turizm sohasini rivojlantiriş yuzasidan fikr almaşdi.**
- **Özbekiston Seul şahrida ötadigan Global tadqiqot kengaşining Osiyo-Tinç okeani mintaqaviy yiğilişida ilk bor hamkor taşkilot sifatida iştirok etadi.**
- **2026-yilning yanvar-oktyabr oylarida 61 736 nafar çet el fuqarosi davolaniş maqsadida Özbekistonga kelgan.**

VATAN MANZUMASI

Da’vat

Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim,
Yozganda köksimga tiğ urib yozdim.
Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgaç,
Qalamni qonimga botirib yozdim.
Qon asli yoruğlik. Yoruğlan, tiz çök,
Asl mard Vatanga tiz çökib ötar.
Qança qoning bölsa – Vatan uçun tök,
Qança şoning bölsa – Vatanni kötar!

* * *

Hozirlan, bir şiddat, şahd kelayotir,
Yölda senmas. Kök daraxt kelayotir.
Vatan deb atalmiş qadrgohlarda
Bayroqday hilpirar vaqt kelayotir!

Halima XUDOYBERDIYEVA

INSON QADRI



TAQDIRLAR ÖZGARMOQDA

HAYOT YÖLINI ÖZGARTIRIŞ MUMKINMI? HA, ÇORRAHALARDA YÖL TANLAŞ HAR KIMNING ÖZ HUKMIDA. BU JARAYONDA IMKON BERILSA, BAS.

ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ŞAVKAT MIRZIYOYEVNING TAŞABBUSI BILAN JORIY QILINGAN “IKKINÇI IMKON” LOYIHASI MAHKUMLAR UÇUN YANGI IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGANI ROST.



(Davomi 2-sahifada).

ÖMONDAN TO NAMANGANGAÇA

Boşlanişi 1-sahifada.

Erişilgan kelişuvlar Özbekiston taraqqiyotida strategik ahamiyat kasb etib, Ömon kapitali va töğridan töğri investitsiyalari hisobiga yangi korxonalar hamda yuqori maoşli iş örinlarini yaratiş imkonini beradi. Şuningdek, neft-gaz-kimyo sanoati va raqamli iqtisodiyotni modernizatsiya qilişda ömonlik mutaxassislarning ilğor tajribasi asosida sanoat tarmoqlarini texnologik jihatdan yangilaşga xizmat qiladi. Şavkat Mirziyoyevning Ömon Sultonligiga amalga oşirgan davlat taşrifi Özbekiston taşqi siyosatining köp qirrali, pragmatik va faol xususiyat kasb etib borayotganini yana bir bor isbotladi.



URBANIZATSIYA VA EKOLOGIYA UYĞUNLAŞGANDA

Davlatimiz rahbari Şavkat Mirziyoyev raisligida “Yangi Toşkent” qurilişini jadallaştiriş va “Yaşil makon” umummilliy loyihasi ijrosiga bağişlab ötkazilgan yiğiliş mamlakatimizda keçayotgan urbanizatsiya va ekologiya siyosatining tub mohiyatini oçib berdi. Uşbu yiğiliş bir qaraşda ikki xil – quriliş va kökalamzorlaştiriş masalalariga bağişlangandek körinsada, aslida, ular yagona maqsadga – xalqimiz uçun qulay, xavfsiz, soğlom va zamonaviy yaşaş muhitini yaratişga qaratilgan. Muloqotda tizimli muammolar oçiq aytilib, faoliyatni tubdan özgartiriş böyiça qat’iy talablar qöyildi.

“Yangi Toşkent” – Özbekistonning ertangi şaharsozlik madaniyati va muhandislik salohiyatini namoyiş etadigan megaloyiha. Şu ma’noda, Prezidentimiz tomonidan uşbu quriliş ustidan har oylik va har bir loyiha böyiça kunlik manzilli nazorat tizimining örnatilayotgani bejiz emas. Bunday kölamdagi loyihalarda loqaydlik yoki sun’iy byurokratik tösiqlarga aslo yöl qöyib bölmaydi.

Yiğilişda ilgari surilgan uçta prinsipial jihat alohida e’tiborga molik. Birinçidan, infratuzilma binodan oldin barpo etilişi şartligi qat’iy belgilandi. Odatda, şaharsozlikdagi eng katta xato avval binolar qad rostlab, söng yöl qurilişi, suv va elektr tarmoqlari tortilişidir. Davlatimiz rahbari bu amaliyotni qat’iy rad etib, uy-joylar foydalanişga topşirilgunga qadar kommunal va transport infratuzilmasi 100 foiz tayyor bölişi talabini qöydi. Bu çora odamlar köçib kelganidan keyin muammolar girdobida qolmasligining kafolatidir. Ikkinçidan, köp funksiyali hudud konsepsiyasi ilgari surildi. Viloyatlarga biriktirilgan yerlarda faqat turar joy quriş bilan çeklaniş taqiqlandi. Har bir sektorda biznes markazlari, mehmonxonalar, maktab, boğça, klinika, madaniyat va istirohat maskanlari mujassam bölişi kerak. Uşbu talab aholining kundalik ehtiyojlari bilan boğliq ortiqça transport harakati va tirbandliklarni kamaytiradi, piyodalar uçun qulay muhit yaratadi. Uçinçidan, “yaşil quriliş” standarti va raqobat zarurligi ğoyasi kun tartibiga qöyildi. Yangi şahardagi har bir inşoot energiya tejamkor, zamonaviy ekologik standartlarga mos bölişi kerak. Viloyatlar örtasidagi soğlom raqobat esa hududlarni bir xil qolipda emas, milliy va zamonaviy me’morçilik uyğunlaşgan öziga xos qiyofada barpo etişga turtki beradi.

Yiğilişning tanqidiy qismi “Yaşil makon” umummilliy loyihasi ijrosiga qaratildi. Davlatimiz rahbarining bu boradagi qat’iy pozitsiyasi jamoatçilik istaklariga mos keldi. Tan oliş kerak, daraxt ekişda qöşib yoziş va soxta raqamlar közga taşlanardi. Bahorda ekilgan köçatlarning uçdan bir qismi qurib qolgani, Toşkent, Samarqand va Jizzax viloyatlarida işlar sustligi, eng açinarlisi, ekilmagan köçatlarni hisobotlarga kiritiş holatlari oçiq-oydin körsatib ötildi. Bundan buyon köçat ekişda son emas, balki uning kökarib, daraxtga aylanişi boş talab böladi. Suğoriş tizimi bölmagan joyga köçat qadab, uni taşlab ketiş amaliyotiga çek qöyiladi.

Bundan taşqari, tabiiy şaroitimizga mos kelmaydigan, köp suv talab qiluvçi qimmatbaho gazonlar örniga iqlimga çidamli mahalliy butalar, daraxtlar, rayhon, jambil kabi an’anaviy ösimliklarni ekiş taşabbusi ilmiy jihatdan asosli va töğri qarordir. Har bir mahallada aholi jon boşiga kamida uç tupdan köçat ekiş vazifasi loyihani xalqçil harakatga aylantiradi. Bunda mahalla oqsoqollari, faollar va örmon xöjaligi xodimlari mas’uliyatni öz zimmasiga olişi, ekilgan har bir niholga egalik qilişi lozim. Prezidentimiz ötkazgan bu yiğiliş barça böğindagi rahbarlar uçun jiddiy ogohlantiriş böldi.

HAR BIR YÖNALIŞ E’TIBORDA

Prezident raisligida 18-noyabr kuni Namangan viloyatida islohotlar natijadorligini oşiriş va investitsiya loyihalarini jadallaştirişga bağişlab ötkazilgan yiğiliş umummilliy ösiş hududlarning faolligiga boğliq ekanini körsatdi. Özbekiston iqtisodiyotining bugungi rivojlaniş sur’ati har bir hududning öziga xos imkoniyatlaridan oqilona foydalanişni taqozo etmoqda. Ta’kidlaş joizki, Namangan viloyati iqtisodiy salohiyatini oşiriş böyiça belgilangan körsatkiçlar yuksak. Joriy yil yakuniga qadar xorijiy investitsiyalarni 5,4 milliard dollarga, eksportni esa 1,2 milliard dollarga yetkaziş rejalaştirilgan. Kelgusi yilda iqtisodiyotni 9,5 foizga östiriş maqsadi qöyilgan bölib, buning uçun umumiy qiymati 5,4 milliard dollarlik aniq loyihalar portfeli şakllantirildi.

Viloyatda amalga oşirilayotgan yirik loyihalar – Namangan xalqaro aeroportini modernizatsiya qiliş va yangi kargo infratuzilmasini barpo etiş hudud eksport-import imkoniyatlarini global darajaga olib çiqadi. Töqimaçilik böyoqlari işlab çiqariş, çiqindilardan elektr energiyasi oliş, bazaltdan issiqlik saqlovçi materiallar tayyorlaş kabi loyihalar viloyat sanoati xomaşyo yönalişidan yuqori texnologiyali işlab çiqarişga ötayotganini körsatadi. Şu bilan birga, 183 ming gektar yer maydonidan samarali foydalaniş, mahsulotni faqat yetiştiriş emas, uni çuqur qayta işlaş orqali eksportbop tovarga aylantiriş asosiy vazifa etib belgilandi.

Yiğilişda viloyatdagi 786 ming nafar yoşning salohiyatini röyobga çiqarişga ustuvor e’tibor qaratildi. Davlatimiz rahbarining kelgusi yilda 10 ming nafar yoşni Germaniya va Yaponiyadagi yuqori daromadli iş örinlariga maqsadli tayyorlaş topşiriği yoşlarni oddiy işçi kuçi sifatida emas, balki yuqori malakali mutaxassis sifatida xalqaro mehnat bozoriga olib çiqiş strategiyasini ifodalaydi. “Yangi Namangan” şaharçasidagi 50 ming xonadonga möljallangan turar joylar qurilişi va u yerda barpo etilayotgan ijtimoiy obyektlar aholi turmuş darajasini oşirişga xizmat qiladi. Turizm sohasida “Araşan” majmuasi va “Qamçiq” toğ dam oliş maskani loyihalari viloyatni sayyohlar uçun jozibali manzilga aylantiradi.



IŞBILARMONLIK MULOQOTI

Prezident Şavkat Mirziyoyev iştirokida bölib ötgan Özbekiston–Turkiya biznesni qöllab-quvvatlaş böyiça yuqori darajadagi kengaşning birinçi yiğilişi ikki davlat işbilarmon doiralari örtasidagi amaliy hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqdi. Uşbu muloqot maydoni özaro işonçga asoslangan sarmoyaviy şeriklikni yanada kengaytiriş, yirik qöşma taşabbuslarni tizimli ravişda qöllab-quvvatlaşga xizmat qiliş bilan ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbari turkiyalik investorlarni “Yangi Toşkent” qurilişi hamda yirik infratuzilma loyihalarida faol iştirok etişga çaqirdi. Xususan, yangi şaharda tijorat va turar joy majmualari, mehmonxonalar, ta’lim va tibbiyot muassasalarini barpo etiş böyiça hamkorlik taklif etildi. Transport-logistika tizimini zamonaviylaştiriş doirasida pulli avtomobil yöllari, aeroportlar va logistika markazlarini rivojlantiriş istiqbolli yönalişlar sifatida belgilandi. Qişloq xöjaligi sohasidagi şeriklikni kengaytiriş masalalariga ham muhim e’tibor qaratildi. Turkiyaning sohadagi boy tajribasini inobatga olgan holda, organik mineral öğitlar va qişloq xöjaligi texnikasi işlab çiqariş, zamonaviy issiqxonalar barpo etiş, boğdorçilik, suv tejovçi texnologiyalar hamda sovutkiç omborlar yönalişlarida kooperatsiyani kuçaytiriş taklif qilindi.

* * *

Bir söz bilan aytganda, ötayotgan hafta voqealari uzviy mantiqiy zanjirga birlaşgan. Barqaror makroiqtisodiy rejalar va hududiy loyihalar mamlakatimizning içki tayançi bölsa, Ömon bilan strategik şeriklik hamda Turkiya işbilarmon doiralari bilan kengayib borayotgan investitsiyaviy hamkorlik taşqi savdo, bunyodkorlik va logistika imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Uşbu sa’y-harakatlarning barçasi yagona maqsadga – fuqarolar manfaati, inson qadri va munosib kelajakni ta’minlaşga qaratilgan.

Iqbol MIRZO

TAQDIRLAR ÖZGARMOQDA



Boşlanişi 1-sahifada.

ILK NATIJALAR

Hozirgi kunda loyiha 11 ta jazoni ijro etiş muassasasida 18–30 yoş oraliğidagi uç yuz nafardan ortiq mahkumni qamrab olgan. “Ikkinçi imkon” doirasida ingliz tili va zamonaviy kasb-hunarlar örgatilmoqda.

Nisbatan qisqa – qariyb olti oylik faoliyat davomida bu loyihaning ilk natijalari uning kutilgan samara berayotganini körsatyapti. Bu loyiha mahkumlarni kelajakda iş bilan ta’minlaş mexanizmining birlamçi qismi sifatida ta’kidlanmoqda.

– Öqitiş natijasi böyiça oraliq sörovlar bölib ötadi, – deydi Içki işlar vaziri Aziz Toşpölatov. – Ularda baho qöyib boriladi. Boşqa öquv muassasalarida bilim qanday baholansa, bu yerda ham şunday baholanadi va kelajakda malakaviy sertifikat beriladi. Har bitta sertifikat bizning hamma qonunlarimiz böyiça barça tizimlarda töliq qabul qilinadi. Sertifikat olganlar kelajakda özining imkoniyati va olgan bilimiga qarab işga taklif qilinadi. Albatta, jazo muddatini ötagan mahkumlarning barçasi iş bilan ta’minlanadi. Ularga iş bozorida takliflar juda köp. Eng tez rivojlanayotgan bozor – axborot texnologiyalari sohasi. Mutaxassislar yetişmovçiligi katta. Şuning uçun ularga imkoniyat yaratib beriladi. Eng muhimi, Prezidentimiz yaratib bergan şaroitdan foydalanib, ular öz oilasi davrasiga kamida bitta xorijiy til va zamonaviy, yaxşi daromad topiş imkonini beradigan hunar egasi bölib boradi.

Loyiha doirasidagi öquv maşğulotlari 2026-yil 1-iyundan Toşkent, Navoiy va Qaşqadaryo viloyatlarida boşlangan edi. Test sinovlari va oğzaki suhbat orqali saralab olingan 311 nafar mahkum ötgan davr mobaynida xorijiy til, şuningdek, kompyuter savodxonligi kurslarida intensiv tahsil oldi. Jumladan, Içki işlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etiş muassasalari departamenti I mintaqaviy hudud 24-son tarbiya koloniyasida ham 30 nafar mahkum ikki guruhda mazkur loyihaga qamrab olindi.

Ular 19 soatlik maşğulotlarni özlaştirganidan söng, oraliq nazorat sinovidan, yana 19 soatlik maşğulotlardan söng esa ingliz tilining “A1” darajasi va “Kompyuter savodxonligi” kurslari böyiça yakuniy nazorat sinovidan ötkazildi. Natijalar tinglovçilarning 88,6 foizi ingliz tili, 79,5 foizi kompyuter savodxonligi böyiça boşlanğiç bilimlarni muvaffaqiyatli özlaştirganini körsatdi.

Jazoni ijro etiş muassasalari orasida 100 foizlik natijaga erişganlari ham borligi qayd etildi. Xususan, Qiziltepadagi 5-son hamda Qarşidagi 3-son koloniyalarda ikkala kurs böyiça özlaştiriş 100 foizni taşkil etdi. Bu körsatkiçlar tinglovçilarning ta’limga qançalik jiddiy yondaşayotgani hamda uşbu loyihani öz kelajagini özgartiriş yölidagi çinakam imkoniyat sifatida qabul qilayotganini körsatadi.

– Davlatimiz rahbariga bizga ta’lim oliş imkoniyatini yaratib bergani uçun rahmat aytaman. Öqituvçilarimiz Hakimxöja aka bilan Jasur aka informatika va ingliz tilidan qiziqarli darslar ötdi. Rosti, oddiy maktabda interaktiv dasturlar bilan kamdan kam saboq olganman. Hozir ingliz tilida sözlaş qobiliyatim ança oşdi. Ozodlikka çiqqaç, ingliz tilini mukammal örganib, öz ustimda işlaşni niyat qilganman, – deydi toşkentlik Mixail Gavrilin.

Mahkumlarning bilim darajasi böyiça sinovlar ularga dars bergan mutaxassislar tomonidan aniqlanmaydi. Bu – loyihani amalga oşirişda xolislik va şaffoflik, şu bilan birga, samaradorlikni ta’minlaydi. Maxsus ekspertlar jalb qilingan bu kabi nazorat sinovlari maxsus platformada har oyda ötkazib kelinmoqda.

ÇIN ADOLAT NIMADA?

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 2026-yil 24-fevral kuni yoşlar bilan ötkazgan uçraşuvida jazo muddatini ötayotgan yoşlarning jamiyatga tez moslaşişi muhimligini ta’kidlagan edi. “Ikkinçi imkon” loyihasi mana şu muloqotning hosilasidir. Bu ezgu taşabbus şu yilning 27-mart kuni tegişli qaror bilan mustahkamlandi.

Ozodlikka çiqqan odamning işsiz va tayançsiz qolmasligi, şuningdek, takroran adaşişining oldi olinişi juda muhim. Şu vaqtgaça jazoni ijro etiş muassasalarida tasviriy san’at, musiqa kabi tögaraklar hamda sartaroşlik, elektrotexnika mexanigi kabi kasblarga tayyorlov maşğulotlari ötkazib kelingan edi. Ammo panjaraning taşqarisida soniya sayin rivojlanib borayotgan XXI asr va uning öz kasbiy ehtiyojlari bor. Şularning eng birinçilari – xorijiy til biliş va kompyuter savodxonligidir.

– Birgina xato sabab insonning kelajagiga nuqta qöyilmasligi kerak. Bu ğoya uşbu loyihaning asosiy tamoyilini taşkil qiladi. Çunki haqiqiy adolat faqat jazolaşda emas, balki insonga töğri yölga qaytişi uçun imkoniyat berişdadir, – deydi 24-son tarbiya koloniyasi tarbiyaviy işlar bölimi boşliği, kapitan Xondamir Hamroyev.

Şu kunlarda uçta hududda sinov-tajriba tariqasida boşlangan “Ikkinçi imkon” loyihasi 2027-yildan boşlab respublikamizdagi barça jazoni ijro etiş muassasalarini töliq qamrab oladi. Adaşib jinoyat köçasiga kirib qolgan odamlarni jamiyatga tölaqonli qaytarişga, bu orqali ularning kelajagini yaxşilaşga qaratilgan bunday umumiy reabilitatsiya tizimi nafaqat yurtimizda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida andozasi bölmagan taşabbus hisoblanadi.

MAQSAD FAQAT SERTIFIKAT EMAS

“Ikkinçi imkon” loyihasi doirasidagi öquv maşğulotlari 8-12 oylik intensiv dasturlar asosida taşkil etiladi. Bunda kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovçilarga egallagan kasbi böyiça respublika miqyosida tan olinadigan elektron şakldagi malakaviy sertifikatlar topşiriladi. Öquv dasturlari doirasida mahkumlarga 12 oy davomida ingliz tili (A1-B2) puxta örgatiladi.

– Şuningdek, öquv rejasidan “Kompyuter savodxonligi”, “Kompyuter servisi va tarmoq texnologiyalari”, “Soft skills”, ma’lumotlar tahlilçisi, marketpleyslarda tadbirkorlik qiliş könikmasini şakllantiriş böyiça kurslar örin olgan. Ularga dastlab “Microsof Office” dasturlari örgatildi. Şundan söng, kompyuterlarga texnik va dasturiy xizmat körsatiş, jumladan, antivirus va “Windows” dasturlarini örnatiş, “Bios” qismlarini yangilaş va kameralarni örnatiş böyiça maşğulotlar ötkazildi. Oraliq va yakuniy nazorat sinovlarida yoşlarning natijalari yomon emas, – deydi şu yilning iyun oyidan buyon 24-son tarbiya koloniyasida mahkumlarga kompyuter savodxonligidan maşğulotlar ötkazib kelayotgan Hakimxöja Ubaydullayev.

Qaşqadaryolik Dilbek Abdiyev haftaning har payşanba va şanba kunlari ötkaziladigan öquv maşğulotlarini, ayniqsa, kompyuter savodxonligi darslarini kutadi va ularda faol qatnaşişga harakat qiladi. Kompyuterda işlaş böyiça dastlabki könikmalarga ega böla boşlagan Dilbek hozirgi kunda bir neçta dasturlardan mustaqil foydalana oladi. Ingliz tilini örganiş borasida ham öz ustida işlab, kelgusida AKT böyiça yetuk mutaxassis bölişni maqsad qilgan. Eng muhimi, u ikkinçi imkondan töğri foydalanyapti.

“Ikkinçi imkon” loyihasidan asosiy maqsad faqat sertifikat beriş emas, balki mahkumlarni daromadli iş bilan ta’minlaşdir.

– Bu – haqiqiy natija uçun qilinayotgan loyiha. Maqsad – jazoni ijro etiş muassasasidagi yoşlar ham ertaga hayotda öz örnini topsin. Baribir, qamoqdan çiqqanidan keyin işga joylaşişda qiyinçiliklar böladi. Lekin hozir IT sohasida çet tilini va kasbni bilsangiz, frilans platformalari orqali ham bemalol daromad topiş mumkin. Şuning uçun ham bu loyiha “Ikkinçi imkon” deb nomlangan. Bugun eng katta kompaniyalardan biri bölgan Unicon Soft öz xarajatlari hisobidan iştirok etyapti. Bu byudjet mablağı emas. Kompaniya nafaqat öqitadi, balki iş bilan ta’minlaş imkoniyatini ham yaratadi. Şu bois, maqsad faqat sertifikat beriş emas. IELTS sertifikatini oliş mumkin, lekin IT sohasidagi sertifikatdan ham muhimroği: insonning ertaga daromad topiş imkoniyatiga ega bölişidir, – deydi Raqamli texnologiyalar vaziri Şerzod Şermatov.

Jazoni ötab ozodlikka çiqqanlar endilikda kundalik turmuşga nisbatan tezroq moslaşadi, jamiyatga qisqa fursatda qöşiliş imkoniga ega böladi. Ular “Ikkinçi imkon” loyihasi doirasida egallagan zamonaviy bilim va kasblari yordamida doimiy daromadli kasb egasiga aylanmoqda va munosib hayot keçiriş imkoniga ega bölişyapti. Bu esa yurtimizda “Inson qadri uçun” degan ezgu ğoya asosida amalga oşirilayotgan xalqçil islohotlarning amaliy ifodasidir.

Otabek ISROILOV

ULKAN XAZINA

Özbekiston Qahramoni Ibrohim Ğafurovning farzandi Zulayho ALIMOVA bilan suhbat

– Zulayho opa, atoqli adabiyotşunos, tarjimon va adib, san'at arbobi Ibrohim Ğafurov nomidagi Tarjima va ijod maktabining kutubxonasi biz uçun faqat suhbat manzili emas, balki boş mavzumizdir. Uşbu maskan Özbekiston davlat jahon tillari universitetida joylaşgan. Keling, suhbatimizni ziyoli kutubxonasi mavzusidan boşlaylik...

– Odatda, dadam haqida söz ketsa, u kişining şaxsiyati, ijodi, xotiralar haqida söraladi. Lekin "Jadid" gazetasi doimgidek yangiça yöldan bordi. Şuning uçun ham dadam naşrlaringizni sevib öqir edi.

Bilasizmi, buyuk allomalar merosini anglaşda ularning öz asarlaridan taşqari, özlari öqigan, yiqqan asarlar ham muhim örin tutadi. Qani endi, bugun bizda Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino kabi ajdodlarimizning kutubxonalari bölsa... Bu uç daho saroylarga faqat bir maqsad – bebaho kutubxonalardan foydalaniş uçun yaqinlaşgan. Mirzo Uluğbek yaratgan kutubxona vafotidan keyin ham Samarqandning ilm olamidagi qudratini saqlab turgan. Manbalarda Zahiriddin Muhammad Bobur Hirotga borganida, Alişer Navoiy kutubxonasini körgani, undan foydalangani keltiriladi. Bu neçoğlik baxt! Şu orqali Ğiyosiddin öğli Alişer qanday qilib Navoiy darajasiga kötarilganini anglaş mumkin.

Kutubxonalarning ahamiyati şundaki, bosqinçilar qaysi xalqni ğorat etmoqçi bölsa, öşa joydagi kutubxonalarga öt qöygan. Oqibat? Fizika böyiça Nobel mukofoti sohibi Pyer Kyuri ta'sirli javob bergan: "Musulmonlar Andalusiyasidan bizga boryöği 30 ta kitob qoldi, xolos. Ularni öqib, atomni parçalaşga erişdik. Agar biz öşa buyuk islom sivilizatsiyasiga tegişli kitoblarni yoqib yubormay, saqlab qolganimizda, bugun galaktikalar aro sayr qilib yurgan bölardik".

XX asr boşida jadidlar oliy maqsadlari sari ilk qadamlarni Eski şahardagi "Turon" kutubxonasidan boşlagani ham bejiz emas. Ötgan asrda özini ziyoli ahliga daxldor sanagan odamlarning uyida şaxsiy kutubxonasi bölgan. U yerda seriyali kitoblar, katta gazeta-jurnallar va hokazolarni uçratiş mumkin edi. Ayniqsa, obuna bölib olinadigan asarlarni bir tokçaga tersangiz, unça-munça bezakdan köra ziynatli bölib turardi. Ammo açinarli tomoni – aksar hollarda, bu faqat haşam uçun xizmat qilgani ham bor gap. Şuning uçun ba'zi jildlar bir marta ham oçib körilmasdi.

Bunga zid ravişda asl ziyolilarning xonadonidagi kitoblar uringan, ezilgan, ta'mirlangan, sahifalari qaydlar, xatçöplar bilan töla bölardi. Masalan, bugun ham Oybek, Abdulla Qahhorning uy-muzeyiga borsangiz, birorta "soğ" jildni topolmaysiz. Ana şu xazina saqlab qolinganining ahamiyati adiblarning asarlari saqlab qolinganidan kam emas. Marhamat, bugun qiziquvçilar borib körsin: Oybek hazratlari nima asar öqigan? Qahhorning qalami qaysi çarxlarda ötkirlangan?

Hermann Hessening "Jahon adabiyoti kutubxonasi" degan zalvorli essesi bor. Unda adib umr böyi öqib, saralagan asarlarini yod etib, ularning ahamiyatini qisqaça keltirib ötgan. Ana şu qisqa röyxatning özidan yuzga yaqin muallif sanaladi. Demak, nobelçi adib osmondan tuşmagan ekan. Navoiyning "Majolis un-nafois" risolasi undan-da salmoqli qomusdir. Bu ham uluğlar kutubxonasi haqida, kitobxonlik madaniyati haqida tasavvur uyğotadi.

Dadamning esse va mansuralarida ham köplab mualliflar, asarlar nomi va iqtiboslar keltiriladiki, bu ham Ibrohim Ğafurov fenomeni haqida tasavvur beradi.

– Demak, asl ziyoli ijodkorlar nafaqat kutubxonalarni boyitadi, şu bilan birga, özlaridan ham avlodlar uçun muhtaşam kutubxona qoldiradi.

– Dadamning vafotidan keyin u kişi naqadar ulkan xazinani tasarruf etganini anglab yetdik. Bu kitoblarni saqlaş va foydalaniş masalasi zimmamizga katta mas'uliyat yukladi.

Universitetda tarjima maktabi oçilgaç, kutubxonani töliq köçirib keliş maqsadi bor edi. Jarayon boşlangaç, dadamning boyligiga yetarliça baho bermaganimiz ma'lum böldi. Şuning uçun uşbu maktabni birinçi bosqiç deb qabul qildik. Kelgusida kitoblar, qölyozmalar va dadamga tegişli boşqa buyumlarni özida jamlagan uy-muzey oçiş niyatimiz bor. Ana şu dargohning salmoqli qismi, albatta, Ibrohim Ğafurov kutubxonasiga ajratiladi. Olimlar, ijodkorlar, kitobxonlar va barça qiziquvçilar bu ma'naviy merosdan bahramand bölişi mumkin. Bizga doim sokin, orasta turadigan muzey emas, tadqiqotçilar, adiblar iş bilan maşğul böladigan, adabiy uçraşuvlar, bahs-munozaralar ötadigan adabiy maskan kerak.



Muhtaram Prezidentimizning adabiyotga, kitobxonlik madaniyatiga katta e'tibor qaratayotgani ezgu niyatlarimizga qanot bağişlamoqda. Töğri, uy-muzey uçun yer oliş, imorat tiklaş, rasmiyatçilik işlari kutib turibdi bizni. Biroq men işonamanki, bu masalalarda bizga töğri yöl körsatadigan, yordam beradigan yurtdoşlarimiz topiladi. Çunki xalqimiz dadamni neçoğli hurmat qilişini çuqur his qilaman. Qarang, qanday gözal kutubxonalar oçilyapti. Ular safiga yana biri qöşilsa, nur ustiga nur böladi. Tarjima maktabidagi kutubxona ham gavjum. Talabalar doim şu yerda.

Ilm insonni yaxşilikka çorlar ekan. Yaxşi işlar tizimli va bardavom bölişi kerak. Maşhurlarning farzandi böliş faqat imtiyoz yo şon-şuhrat emas, balki milliy mas'uliyat ham. Baholi qudrat, dadamning ilmiy-ijodiy merosini tarğib etişda davom etamiz. Bu işlarimiz tarjimonlarga, tarjimaşunoslarga kömak bölsa, boşimiz osmonga yetadi. Yangi avlod mutarjimlarining şakllanişiga hissa qöşsak, dadamning ruhlari şod böladi. Zero, ilm maskanlarining obodligi u yerga taşrif buyuruvçilarning soni va salohiyatiga boğliq.

Şukurki, kutubxona oçilişi xayrli boşlandi. Tadbirda taniqli olimlar, yozuvçilar, yoşlar iştirok etdi. Hatto, çet ellik mehmonlarimiz ham böldi.

– Xorijliklar tarjimon kutubxonasidan qanday taassurotlar oldi?

– Kutubxonaga kelgan mehmonlarimiz malayziyalik ekan. Körib juda quvonişdi. Ularga Ibrohim Ğafurov jahon adabiyotining önlab mumtoz namunalarini, xususan, Dostoyevskiy, Mopassan, Xeminguey, Markes, Joys, Aytmatov kabi adiblarning maşhur asarlarini özbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilib, badiiy tarjimaçilik sohasida özига xos ijodiy maktab yaratganini aytdik. Oçiği, hayratdan bir-biriga qarab öz tillarida "Ofarin", "Fantastika bu", "Ulkan jasorat" deb xitob qildi. "Biz siz sanagan adiblarning asarlarini yozilgan tilida öqib ham tuşunişga qiynalganmiz. Inglizça, fransuzça tarjimalarni anglaşda ham köp ter tökkanmiz. Agar Ğafurov "Aka-uka Karamazovlar", "Uliss", "Buzrukning kuzi"ni öz tiliga ögirib, xalqiga manzur qila olgan bölsa, haqiqiy qahramon ekan", deyişdi samimiy hayrat bilan.

> **Adabiyotimizning ulkan vakillaridan biri, atoqli adabiyotşunos olim, mohir adib va tarjimon, jonkuyar publitsist Ibrohim Ğafurov timsolida men butun ongli hayotini milliy ma'naviyatimiz ravnaqiga bağişlab kelayotgan fidoyi şaxs, halol va kamtarin insonni köraman.**
>
> **Bir kuni Erkin aka bilan ona tilimiz haqida sözlaşib qoldik. Şunda, heç esimdan çiqmaydi, Erkin aka bir gap aytdi: "Agar kimda-kim özbek tilining bor jozibasi, tarovatini his etmoqçi bölsa, Ibrohim Ğafurovga murojaat qilişi kerak". Bu gapni Erkin Vohidov çin yurakdan, mehr bilan ta'kidladi. Bu fikrda çuqur ma'no bor, deb öylayman.**
>
> **Ibrohim Ğafurov özining beqiyos ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan el-yurtimizga juda katta xizmat qilgan uluğ zamondoşimizdir.**
>
> **Şavkat MIRZIYOYEV,**
> **Özbekiston Respublikasi Prezidenti**

Kamina ularga Ibrohim Ğafurov rostdan ham Özbekiston Qahramoni, san'at arbobi, tarjimonlar uçun ta'sis etilgan Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotning ilk sohiblaridan ekanini aytganimda, hayratlari ön çandon ziyoda böldi. Çunki davlat miqyosida tarjimonga bunça e'tiborni ular özlari borgan biror davlatda körişmagan ekan. Yozuv maşinkasini körib, jild-jild kitobni şu qurilmada teriş, yana özi ham asarlar yozişga toqat qilgani, qayta-qayta köçirganini eşitib, özbekona aytganda, igna bilan quduq qaziş maşaqqati oldida boş egişdi. "Agar imkoniyatimiz bölganida mana şu universitetlarda öqirdik, mana şu joylarda tarjima bilan şuğullanardik", deyişdi. Bular, albatta, yoruğ yuz bilan aytadigan gaplar.

– Katta avlod ijodkorlaridan ziyoli deganda Asqad Muxtor siymosi köz oldimizga kelardi, degan sözni köp eşitganmiz. Bizning zamonamizda esa ziyoli deganda Ibrohim Ğafurovni tuşunadiganlar juda köp. Ibrohim Ğafurov nafaqat kutubxona qoldirdi, balki özi ham bir kutubxonaga yetgulik kitoblar yozdi, tarjimalar qildi. Agar ustozning turli yillarda va tillarda çiqqan kitoblari jamlansa, bir neça javonga jam bölişi, şubhasiz. Ustozning "Adabiyot dunyosi" ruknida 8 jildlik "Asarlar"i çop etildi va katta qiziqiş bilan kutib olindi. Nazarimizda, buning davomi ham bölsa kerak?

– Filologiya fanlari doktori Şahnoza Nazarova naşrga tayyorlagan köp jildlik dadamning mualliflik kitoblaridan tuzilgan. "Joziba", "Yurak – alanga", "Şeriyat – izlaniş demak", "Dil erkinligi", "Hayo – xaloskor", "Mangu latofat", "Parivaşlar majlisi", "Oltin qoziq" asarlari sotuvda qolmagan, kutubxonalarda ham ehtiyoj paydo bölgan edi. "Yangi asr avlodi" naşriyoti hamda saxovatli insonlar kömagida uşbu loyiha amalga oşirildi. Quvonarlisi, dadam şu kunlarni kördi. Hali köp jildlikning davomi sifatida 12 kitobga möljallangan "Tarjima dunyosi" rukni ham rejalaştirilgan. Qolaversa, Ibrohim Ğafurovning ilmiy asarlari, keyingi yillarda yozilgan maqolalari, taqrizlari, nutqlari, xatlari, qaydlari va qölyozmalari ham yana beş-olti jildga yetadigan material böladi. Dadam haqidagi ustozlari, jahon adiblari, zamondoşlarining xotiralari ham salmoqli. Oldinda mana şu kitoblarni naşrga tayyorlaş, çop etiş, olimlarimiz bilan hamkorlikni davom ettiriş, loyihalarni moliyalaştiriş kabi katta maqsadlarimiz turibdi. Rejalar ulkan, imkon qadar ularni amalga oşiramiz.

– Sizga kuç-quvvat va muvaffaqiyat tilab qolamiz. Ibrohim Ğafurov kutubxonasi kengayib boraversin. Samimiy suhbatingiz uçun rahmat.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlaşdi.



OLAM OLIMI



Anri Boris KAGAN

Asriy jumboqni yeçgan nobelçi

HAYOTI

1930-yil 15-dekabrda Fransiyaning Bulon-Biyankur şahrida tavallud topgan. Milliy kimyo oliy maktabi va Sorbonna universitetini bitirgan. 1954-yildan 1962-yilgaça Milliy ilmiy tadqiqotlar markazida (CNRS) işlagan. 1960-yilda doktorlik darajasini oldi. Bir neça yil Alen Oro qöl ostida ilmiy xodim bölib işladi va Fransiya kollejida laboratoriya direktorining örinbosari böldi. 1967-yilda Orse şahridagi Parij-Sud universitetining Fanlar fakultetida tadqiqot guruhini tuzdi. 1968-yilda assimetrik sintez laboratoriyasini taşkil etdi. 1973-yildan kimyo professori, 1999-yildan beri faxriy professor.

KAŞFIYOTI

Anri Kaganning tadqiqotlari molekulalarning fazoviy tuzilişini boşqariş va yangi avlod dori vositalarini yaratişda inqilobiy buriliş yasadi. Kagan katalizator tarkibidagi bir xil "közgu şakli"dagi molekulaning (enantiomerning) hatto juda oz miqdordagi ustunligi ham reaksiyaning yakuniy mahsulotida bir neça barobar kuçayişini isbotladi. Olim uşbu murakkab jarayonni aniq tavsiflovçi matematik modellarni ham işlab çiqdi. U birinçi C_2-simmetrik difosfin ligandi – DIOP ni yaratdi va uni asimmetrik gidridlaş reaksiyalarida muvaffaqiyatli qölladi. Aynan şu kaşfiyot optik faol birikmalarni zamonaviy sanoat miqyosida sintez qiliş davrini boşlab berdi.

Kagan ikki valentli lantanoid hosilalarini, xususan, samariy diiodidini (SmI_2) organik sintez amaliyotiga olib kirdi. Bugungi kunda uşbu birikma kimyo fanidagi eng universal va qulay qaytaruvçi vositalardan biri hisoblanadi.

E'TIROF

1991-yildan buyon Fransiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi bölgan Anri Kaganning xizmatlari xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan doimiy ravişda yuqori baholanib kelingan. Kimyo böyiça Volf mukofoti (2001), Benjamin Franklin medali (2005) va yana önlab nufuzli xalqaro mukofotlar sohibidir. Olimning ilmiy tadqiqotlari dunyo kimyogarlari uçun ilhom manbai bölib xizmat qilmoqda.


2026-yilgi kimyo böyiça Nobel mukofoti Kaganga yaponiyalik olim Kenso Soai bilan birgalikda "asimmetrik organik sintezda çiziqsiz effektlar va avtokatalizni kaşf etgani uçun" topşirildi. Bu ilmiy işlar tirik tabiatdagi gomoxirallik (molekulalarning faqat bir xil "közgu aksi" şaklida ustunlik qilişi) fenomenini tuşuntirib berdi va xavfsiz, yuqori samarali dori-darmonlar işlab çiqarişga poydevor qöydi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

TALQIN

XARAKTER MUSAVVIRI

Yaqinda iste’dodli adib Şuhrat Matkarimning “Ijod Nashr” naşriyoti tomonidan ikki jildga jamlangan asarlari bosilib çiqdi. Kitoblar mundarijasiga nazar taşladim. Öqimaganimdan öqiganlarim köp. Birinçi jilddan ellikdan ortiq hikoya joy olibdi; ikkinçi jildga kiritilgan önga yaqin hikoya, bir neçta qissa va bitta drama – bularning bari Şuhrat Matkarimning keyingi davr ijod mahsuli.



Ikki jildlik kitob tarkibidan iste’dodli şoir Matnazar Abdulhakimga bağişlangan “Ustoz haqida söz” essesi ham örin olibdi. Muhtaşam ikki kitob – yozuvçi ijodining fazilatlarini tasavvur qilişiga yordam beradigan adabiy manba; köz tegmasin, adabiy xirmon yomon emas. Ança yilgi tanaffusdan keyin Şuhrat akaning bu tarzda sermahsul bölişiga adibni bezovta qilgan va yozişga undagan quvonçlar, iztiroblar, dardlar sababdir, nazarimda.

Talabalik davrimizda “Yoşlik” jurnalida Şuhrat Matkarimning “Öramda” hikoyasi bosilgan edi. Öqib eslab qolgandim. Biroq şu çiqişidan keyin yozuvçi ança vaqt körinmay ketdi. Hamma qatori tirikçilik ummoniga şönğidi, menimça. Hayotning, odamlarning, kundalik turmuş muammolarining içida yaşadi. TV muxbiri sifatida yurtni örgandi, odamlar dardini tingladi. Balki şuuriga muhrlanib, bugun qoğozga tuşayotgan voqea-hodisalardan hikoya, qissalar paydo bölişini öylamagandir ham. Baribir, ijodkor zotining xayol puçmoqlarida allaqanday bezovtalikka sababçi ta’sirli, qiziq voqealar qaçondir badiiy asarga aylanişini kutib yotgan böladi va mavridi kelganda qoğozga tuşadi.

Şoşmaslik degan bebaho saboqni yoş ijodkorlar Şuhrat Matkarimdan örganmoği lozim. Şuhrat akaning ilk kitobi yoşi oltmişga yaqinlaşganida bosildi va adabiy jamoatçilik orasida e’tiroflarga sazovor böldi. Bu e’tirof uçun yozuvçi kamida öttiz yil indamay yurdi, özini davralarga urmadi, minbarbozlik qilmadi, öyladi, yaşadi, zavqlandi, işladi, jimgina ijod qildi.

Adibning “Xiyonat”, “Yöriqsiz tuşlar”, “Skripka kötargan qiz”, “Ota”, “Boljon”, “Ijodkorlar”, “Şoir”, “Mukofot”, “Bozor”, “Töra” kabi röyxatni ança davom ettiriş mumkin bölgan hikoyalarining mavzusi xilma-xil. Aslida, har qanday yozuvçi özi yaxşi bilgan mavzularni maroq bilan badiiy talqin qiladi, maza qilib yozadi. Şuhrat Matkarimning yozganlarida oddiy qişloq odamlari, turli mansab-martaba egalari, oşiqlar qalbidagi pokiza tuyğular, ayniqsa, ijodga daxldor insonlarning hayot tarzi, ularning obrazi köproq qalamga olinadi.

“Maktub”ni öqidim. Xat kelganidan xabar bor. Ammo maktubning özidan darak yöq. Maktub oçilmaydi. Qahramon qalbi oçiladi. Maktub bois, Davlatboyning xayoli olislarga ketadi. Bitta xat assotsiatsiyasidan bitta hikoya bunyod böladi. Bunda qaynoq yoşlik davrining surur va alamlari, iztirobi, tazarrusi seziladi.

“Rais”ni öqidim. Kalondimoğ raislarni çöğdan olib olovga taşlaş, yomonotlik qiliş – bunday odatiy tamoyil kuzatilmaydi. Şuhrat Matkarim bitiklari voqeani boşqalar xayoliga kelmagan tomondan, odamning tuyğun könglini tasvirlaş jihatidan özига xos. Ortiqça tafsilotlar, örinsiz bijirlaşlarga örin bermasdan, voqelikning özini va uning içida harakat qilayotgan, sözlayotgan odamni tasvirlaydi yozuvçi. “Rais”da raisning ismi yöq. Ammo unga Odil, Olim, Qudrat, Eşquvvat, Dilmurod kabi qator ismlar beriş mumkin, bemalol. Çunki Rais odamlar dardini eşitadi. Adibning bu hikoyasini öqib, ba’zi asarlarda ismlar böladi, ammo ular xarakter xususiyatidan mosuvo böladi, degan fikr xayolimdan ketmadi. Şuhrat Matkarimda, aksinça, hikoya qahramonlariga gohida ismlar taqalmasligi mumkin, ammo ular öz fitratiga köra ismlarini özlari aytib turadi.

Şe’r uçun tuyğular muhim. Ammo hikoya ham his-tuyğular ortidan paydo bölsa, odamning köngli yorişadi. Deylik, “Boljon”da şunday bebaho pokizalik bor. “Qöqir bilan Yompiq” hikoyasida ikki xil tabiatli odam muhokama qilinadi. Bir olifta noşir haqida: “U hamişa oq-oppoq kostyum-şimda yurar, tuflilar ham oq, jörroplar ham oq-oppoq bölar edi. Salmoqlab, viqor bilan qadam taşlab kelaversa, bir parça oq bulut yerda yurib kelayotirmi, der edingiz”, deb yozadi muallif. Qöqir-oliftani aniq tasavvur qilasiz. Adib hikoyalarida biror adabiy detal içiga voqeani jamlaş usulidan unumli foydalanadi. “Közoynak”da şunday. Bunga öxşaş assotsiativ syujetdan foydalaniş uning qissalarida ham közga taşlanadi.

Şuhrat Matkarimning qissalaridagi har bir obrazning öz qiyofasi, keçmişi bor. Ular xarakterli odamlar. Deylik, “Salav” qissasi markazida şunday xarakterli Şerzod turibdi. Unga yondoş boşqa obrazlar özaro teng kuçli. Şerzodning otasi Qiliçboy, onasi Şarpa momo, uçar sinfdoşi Poqqi mapiy (Farhod), benavo Oybodoq, yana Islom buva, Qöldoş buva kabi bir neça kimsalar şu markaziy obraz tegrasida, uning hayot tarzi va “salav”ligi atrofida birlaşadi. Bu obrazlarni öziga xos qiyofasi bilan tasavvur qiliş qiyin emas. Aslida, tobora unutilib borayotgan badiiy adabiyotning ramzli tili şunday bölmoği, ya’ni, inson tabiatining xolis tasviri uçun tasavvurga yöl oçib bermoği lozim. Yozuvçi obrazlar tabiatini yonidagi unga hamroh qahramonlar zimmasiga yuklaydi. Muallif öz nuqtayi nazarini köp ham oşkora qilavermaydi. Aksinça, gohida özaro jang-u jadallarga kirişib ketgan qahramonlarini bir-birdan himoya qiladi. Gohida ularning ojiz, beçora banda ekaniga e’tibor qaratadi. Şunday örinlarda Şuhrat Matkarim nasriga xos umumiy bir pafos – insonni e’zozlaş ğoyasi yuzaga qalqib çiqadi. Aziz-u mukarram qilib yaratilgan inson hamma zamonlarda öz hayotini şu martabaga munosib yaşamoği lozim.

Muallif qahramonlari hayotini öz qalamini zöriqtirmasdan tasvirlaydi. Söz izidan söz keladi, voqealar zinjirining ulangan joylarini öquvçi sezmay ham qoladi. Buning nomi – badiiy mahorat. Yozuvçi qahramonlarini ortiqça böyab-bejamasdan sözlatadi. Ularning qilmişlari, boşidan keçirmişlari haqida esda qoladigan qilib yozadi. Deylik, qalamkaş Qiliçboy aka holi haqida: “Ruçka yengil yuritilsa uzuq-yuluq iz qoldirar, qattiqroq bosilsa qoğoz teşilib ketar edi. Hozir ham botqoqda it yörtganday etib yozilgan bir neça varaq stol ustida soçilib yotardi”, deb yozadi. Şu kimsaning beçoravaşligini “yomğirdan qoçgan musiçaday egnini qisib, juda önğaysiz bir alpozda” mudrayotgan tarzda körsatadi. Bunday vaziyatni anglaş, tasavvur qiliş qiyin emas. Qöldoş buva ötib ketgan otasi haqida kitob yozdiriş dardida yuribdi. Uning notinç oilasini, xotini va unga uylanişini muallif: “Ammo qiz xudoning ğazabi çiqdi. Oğzidan söz emas, öt bilan olov purkar ekan. Tezda böşgina Qöldoşni örab-çirmadi, nöxtaladi, egarlab minib oldi”, deya tagdor qilib yozadi. Bir örinda mubolağa bilan: “Tipratikonni ters yutganday közlari ola-kula bölib ketdi”, desa, gözallik bilan tubanlikning nomutanosib bir manzarasini: “Gilam göng ustida ungan lolaga mengzardi”, deb öxşatadi. Adib asarlarida bunday xalqona ta’birlar, topildiq iboralar, frazeologik birliklar köp topiladi.

Monoton bayonni özgartiriş uçun yozuvçi zaruratga köra tabiat unsurlariga murojaat etadi; ularga insonga xos sifatlarni köçiradi, ya’ni, personifikatsiyani qöllaydi: “Birdan köçada şamol kuçaydi – yölakda yelvizak paydo böldi. Çaqirilmagan mehmon koridor böylab şuvillab ötdida, özini podyezdga urdi. Kuydirilgan piyoz va göştning iştahani qözğovçi qorişiq hidini köçaga yoya boşladi. Yelvizak bu işi bilan qanoatlanmay, ajib şöxlik va tegajoğlik bilan dahlizdagi darpardaning etagini goh kötarib, goh tuşirib, u bilan öynaşa ketdi”. Yelvizakning bu qiliği, darparda bilan öynaşib turişlari ham bejiz emas, öşa makonda uçraşib, suhbatlaşib ötirgan ikki kimsaga qaysidir ma’noda aloqador ham.

Şuhrat Matkarim nasrining badiiyati, asarlarining poetik qiymati samimiylik, tabiiylik, hayotiylik, diologik va monologik nutq orqali namoyon böladi. Yozuvçi ezmalik qilmaydi. Ohangjamo ajnabiy kalimalardan köra şeva sözlarini qöllab, zarur bölsa, ularning ma’nosini havolada izohlaydi. Özbek tili şu zaylda boyitiladi ham.

“Maqar” qissasini birinçi öqiganimdayoq, uni yaxşi asar degan qat’iy fikrga kelgan edim. “Maqar” bugungi adabiy hayotda öz yölini topib, katta adabiy ummonga qöşilib bormoqda. Asar nomi uning boş qahramoni tarixiga oid. Asli ismi Hösinboy bölgan Maqarning qiyofasi, pokiza qalbi, odamiylik rutbasi, kitobga oşno odam ekani qissani içdan yoritib turadi. Asarda içki nutq kuçli. Içki nutq esa har qanday qahramonning ruhiy-psixologik kayfiyatini oçiş kaliti sanaladi. Maqar iddaolarsiz, ammo köngli samimiyatga limmo-lim tölgan obraz. Öquvçi uni beixtiyor yaxşi körib qoladi va öz hayotida körgan qaysi bir yaqinlariga öxşatadi ham. Obrazning umumlaşma xususiyati, kuç-quvvati ham şunda.

Xorazmda laqabi bilan çaqiriş, laqab taqiş urfi keng yoyilgan. Odamlarning tabiatiga, avlod-ajdodlari, yaşaş şaroiti, körinişi, qiliği, kasb-koriga qarab turli laqablar töqiladi. Şuhrat Matkarim “Maqar”da şunga diqqat qaratadi: “Maqar bolalarini yaxşi körib, ularga ajib-antiqa laqablar qöyardi. Maqsat Moqqi edi. Normamat Mamat, Maşirip Maşşiq, Ahmad Akki, Sa’dulla Saşka, Gulruh Tönqi, enasining ismi qöyilgan Guljonga Kampir der edi. Nilufarga Lilli, eng kenjasi Zuhraga Jöqqi, katta qizi Gulbahorga Didoq, Oydinning nevarasiga Oyyi, Quvonçga Qöyyi, Marhaboga Vorroq. Hammaning laqabi bor edi. Maqar jilmayib qöydi”. Bu bir oila doirasida töqilgan ism-laqablar. Ularda erkalaş ham bor. Yozuvçining bundan boşqa asarlaridagi obrazlarga taqalgan laqablar ham qaysidir ma’noda adabiy-estetik vazifani bajaradi. Qisqargan ismlar, taqalgan, töqilgan laqablar, ularning negizi, paydo böliş sabablarini, menimça, Şuhrat Matkarim ijodi bahonasida maxsus örganiş mumkin.


“Maqar” qissasining umumbayoni va qahramonlari nutqini individuallaştirişda yozuvçi xos şeva sözlarini köp işlatadi. Ijodining avvalgi davrida yozilgan hikoyalariga nisbatan “Maqar”da bu tendensiya kuçaygani seziladi. Şuhrat Matkarim ijodi şu jihati bilan ham qadrli va qiziqarli. Haligaça birorta özbek adibi qöllamagan, özbek tili luğatlaridan örin olişi lozim bölgan ayrim sözlarni muomalaga kiritiş juda muhim, albatta.

Şuhrat aka zörma-zöraki yozmaydi. Tabiiy, samimiy, erkin ijod qiladi. Özini turli qoliplarga solib qiynamaydi. Ayni damda, şeva sözlarini örinli-örinsiz qatorlaştirmaydi ham. Bu asarlarni öqigan öquvçi voqelikning tabiiy bir oqimiga tuşadi. Yozuvçining öquvçi diqqatini tutib turadigan adabiy usullari bor. U epizoddan epizodga ötadi va zarur örinda ipning boşlanğiç uçini tortib, barça voqeani bir doira içiga jamlab oladi. Şunday syujet yöli va kompozitsion quriliş manzarasining, qaysidir ma’noda, koordinatalar tekisligida çizmasini çiziş mumkinga öxşab körinadi. “Salav”da jinoyat haqida gap bor. Ammo jinoyatçini topiş maqsad qilinmaydi. Oxiri bilan boşini şu ma’lumot bilan jamlab beradi. Yoki “Tayoqtomda töy” hajviy qissasida ham şunday usuldan unumli foydalanadi. Töy haqida xabar bor, ammo odamlarni yozuvçi töyxona içkarisiga kiritmaydi. Töyxonaga odamlar yiğilişi kerak. Asarda qatnaşayotgan obrazlar öz qilmişlaridan özlari kuladi va uyaladi, özlari mamnun böladi va maqtanadi. Çopqir boltasi ham, sopi ham özlari. Yozuvçi xolis tasvirçi. U qahramonlarining qilmişlariga aralaşmaydi, yaxşi-yomonga ajratib, ortiqça muhokama qilmaydi. Qahramonlarning xarakteri gapiradi. Yozuvçi bu oşna-oğayni, taniş-bilişlarni bir joyga jamlab, köngillarida yiğilib qolgan dardlarini sözlaşga, özaro gurung qilib dillarini yozişga imkon beradi.

Aytiş mumkinki, bugungi adabiy jarayonda Şuhrat Matkarim ijodiga qiziqiş kuçaydi, yozuvçining muxlislari, asarlarining tadqiqotçilari paydo böldi. Tadqiqotçilardan ayrimlari dissertatsiya himoya qildi. Adibning kitobxon qahramonlaridan biri: “Özi yaxşi kitob bölsa, qölingga “şappa” yopişadi. Öqib bölmaguningça qölingdan yozdirmaysan”, degan haq gapni aytadi. Şuhrat aka yozgan asarlar şunday sifatga ega. Öziga xos xarakterlar musavviri, iste’dodli adib Şuhrat Matkarim öz asarlari bilan özbek adabiyoti tarixida munosib qadr topişiga işonçimiz komil.

Sözim tugançida yana bir zarur gapim bor. Şuhrat Matkarimning uşbu ikki jildlik kitobiga Ozod hoji Abdullayev homiylik qilibdi. Ma’naviyat zahmatkaşlarining bunday xayrli işlari boşqalar uçun ham ibratdir.

Bahodir KARIM,
professor



Savodli böla turib kitob öqimagan odamning savodsizdan farqi yöq.

Mark TVEN

KUN SÖZI



ZIYOLI MAS’ULIYATI

Har bir millatning ma’naviy qiyofasi, tafakkur darajasi va kelajakka intilişida ziyolilarning örni alohida. Ular jamiyatdagi voqea-hodisalarni teran anglaydigan, bilim va tajribasi bilan atrofdagilarga yöl körsata oladigan, ezgulik va adolat mezonlarini hayotda qaror toptirişga intiladigan insonlardir. Şu bois, xalq azaldan ziyolilarga hurmat bilan qaragan, ularning fikriga quloq tutgan, hayotiy tajribasi va ma’naviy qaraşlaridan ibrat olgan.

Biroq ziyolilikni faqat ma’lumot, ilmiy daraja, unvon yoki kasbiy mavqe bilan ölçab bölmaydi. Haqiqiy ziyoli öz bilimini manmanlik vositasiga aylantirmaydi, aksinça, uni odamlarga naf keltiriş, jamiyatdagi muammolarni anglaş va ularning yeçimiga hissa qöşiş uçun işlatadi.

OILADAN BOŞLANADIGAN MEZON

Ziyolilikning ilk mezoni insonning öz oilasidagi munosabatlarida körinadi. Özgalarga odob-axloq haqida gapiradigan kişi, avvalo, yaqinlariga mehribon, farzandlariga e’tiborli, oila a’zolariga nisbatan adolatli bölişi lozim. Zero, bola uçun ota-onasining hayot tarzi har qanday nasihatdan ta’sirliroq.

Farzand tarbiyasida faqat yaxşi ta’lim oliş yoki kelajakda munosib kasb egallaşga yönaltirişning özi kifoya emas. Unda mustaqil fikrlaş, öz xatti-harakatlari uçun javob beriş, birovning haqini hurmat qiliş, mehnatdan qoçmaslik, özgalar dardiga befarq bölmaslik kabi fazilatlarni ham şakllantiriş zarur. Ayniqsa, bugungi axborot oqimi kuçaygan şaroitda yoşlarni har qanday ma’lumotni tanqidiy baholaşga, haqiqatni asossiz da’vodan farqlaşga, öz qaraşlarini dalillar bilan asoslaşga örgatiş muhimdir. Bunda ota-onaning kitobxonligi, bilimga intilişi, kundalik voqealarga munosabati va farzand bilan oçiq muloqoti katta ahamiyatga ega. Bolaning savollariga e’tibor bilan javob beriş, uning fikrini tinglaş, xatosini kamsitmasdan tuşuntiriş ham tarbiyaning muhim qismidir.

EL KORIGA YARAŞ BAXTI

Insonning bilim va salohiyati jamiyat hayotida öz ifodasini topgandagina, töla qadr kasb etadi. Ziyolilikning muhim belgisi ham öz imkoniyatlarini faqat şaxsiy manfaat bilan çeklamasdan, xalq va yurt ravnaqiga yönaltira bilişdir. Bu mas’uliyat har bir sohada öziga xos tarzda namoyon böladi.

Ziyoli vazifani şunçaki bajariş bilan çeklanmaydi. U işining sifatini oşirişga, yangilik yaratişga, mavjud muammolarga yeçim topişga intiladi. Kamçilikni körganda befarq ötib ketmaydi, uning sabablarini örganadi, xolis fikr va amaliy taklif bilan çiqadi. Bunday yondaşuv kasbiy mas’uliyatni ijtimoiy daxldorlik bilan boğlaydi. Zero, jamiyat taraqqiyoti faqat alohida insonlarning muvaffaqiyatiga emas, balki har bir sohada öz işini vijdonan bajaradigan, umumiy manfaatni öylaydigan fidoyi kişilar mehnatiga tayanadi.

Bu toifaning jamiyatdagi örni, ayniqsa, özi yaşab turgan mahallada yaqqol körinadi. Çunki mahalla – insonlarning kundalik hayoti, quvonç-u taşvişlari, orzu-intilişlari va muammolari bir-biriga tutaşadigan, hamjihatlik va özaro kömak qadr topadigan muhit. Bu yerda ziyolining bilimi, hayotiy tajribasi va odamlar örtasidagi obrösi muhim ahamiyat kasb etadi. U mahalla yoşlarining ta’lim-tarbiyasiga kömaklaşiş, iqtidorli farzandlarni qöllab-quvvatlaş, kitobxonlik va ma’rifiy tadbirlarni taşkil etişda taşabbus körsatadi. Şuningdek, oilalar örtasidagi hamjihatlikni mustahkamlaş, keksa avlod tajribasini yoşlarga yetkaziş, ehtiyojmand insonlarga kömak beriş kabi xayrli işlarga öz hissasini qöşadi. Ba’zan bir insonning oqilona maslahati, xolis munosabati yoki amaliy yordami mahalladagi muayyan muammoning hal etilişiga turtki böladi.

U odamlarni tayyor yeçim kutişga emas, mavjud imkoniyatlardan foydalanib, muammolarni birgalikda hal etişga undaydi. Bunday faollik mahallada özaro işonç va daxldorlik tuyğusini kuçaytiradi.

MEHNATNING MUAYYAN QIYMATI

Millatning kelajagiga işonç bugungi kunning amaliy natijalari, ilm-fan va tafakkur salohiyati, yoş avlod uçun yaratilayotgan imkoniyatlar bilan mustahkamlanadi. Bu jarayonda ziyolilarning mehnati alohida örin tutadi. Çunki ular faqat bugungi vazifalarni bajaribgina qolmay, ertangi kunning intellektual va ma’naviy asoslarini ham yaratadilar.

Ilm-fan sohasidagi izlanişlar, ta’limdagi yangilanişlar, tibbiyotdagi yutuqlar, madaniyat va san’atdagi ijodiy kaşfiyotlar, işlab çiqarişdagi texnologik yeçimlar zamirida insonlarning bilimga çanqoqligi va fidoyiligi mujassam. Har bir puxta tadqiqot, sifatli dars, yangi işlanma yoki ijodiy asar kelajak uçun muayyan qiymat yaratadi. Bu mehnatning samarasi ba’zan darhol közga taşlanmasligi mumkin, ammo yillar ötib, uning natijasi kamolga yetgan şogirdlar, hayotga tatbiq etilgan ğoyalar va jamiyatda qaror topgan yangi qaraşlarda namoyon böladi.

Ayni paytda, axborot tezligi va turli qaraşlar ta’siri kuçaygan zamonda ziyolilarning xolis sözi, teran tahlili va ma’rifiy pozitsiyasiga ehtiyoj ortib bormoqda. Ziyoli inson bu jarayonda odamlarni tayyor xulosalarga ergaştirişga emas, mustaqil fikrlaşga, savol beriş va haqiqatni izlaşga undaydi. Bu esa jamiyatning ma’naviy barqarorligi va intellektual salohiyatini yuksaltirişga xizmat qiladi.

Albatta, ziyolilarga bölgan hurmat ular zimmasiga muayyan mas’uliyat ham yuklaydi. Odamlar ularning fikriga e’tibor qaratar ekan, sözi bilan amali örtasida muvofiqlik bölişini kutadi. Şuning uçun ziyoli inson öz obrösini asraşni emas, unga munosib yaşaşni muhim deb bilişi kerak. U manmanlikdan yiroq bölişi, özgalarning fikrini tinglaşi, xatosini tan olişdan qoçmasligi va haqiqatni şaxsiy manfaatdan ustun qöyişi lozim.

Aslida, ziyolilikning eng yuksak mezoni – insonning özidan keyin qanday iz qoldirişidadir. Uning qadri faqat yutuq yoki e’tiroflari bilan emas, tarbiyalagan farzandlari, kamolga yetkazgan şogirdlari, odamlar hayotiga olib kirgan ezgu özgarişlari bilan ham ölçanadi. Oilasida mehr va ma’rifat muhitini yaratgan, mahallasida hamjihatlikka hissa qöşgan, kasbi orqali elga naf keltirgan insonning ta’siri öz umridan keyin ham davom etadi.

Abdumutallib ÖKTAMOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qiliş markazi eksperti

IZLANIŞDAN NATIJAGA

Boşlanişi 1-sahifada.

YANGI MATERIALLAR – YANGI IMKONIYATLAR

Institutimizda fizika va material-şunoslikning köplab yönalişlari böyiça tadqiqotlar olib boriladi. Bevosita özim va ilmiy guruhimiz faoliyatiga töxtaladigan bölsam, izlanişlarimiz, asosan, kremniy-uglerod asosida yangi materiallar yaratiş, amaliyotdagi muammolarga yeçim topiş va ular asosida samarali texnologiyalar işlab çiqişga qaratilgan.

Kremniy oliş, kremniyli qotişmalar işlab çiqariş texnologiyalarini takomillaştiriş va ularning xususiyatlarini modifikatsiyalaş ustida işlaymiz. Uşbu yönalişdagi muammolarni hal etişga qaratilgan köplab patentlarimiz ham mavjud. Maqsadimiz – ilmiy izlanişlar natijalarini amaliyotga tatbiq etiş, işlab çiqariş samaradorligini oşiriş va yangi materiallardan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirişdir.

Tadqiqotlarimizning yana bir muhim yönalişi – akkumulyator batareyalari uçun işlatiladigan materiallarni takomillaştirişga qaratilgan. Bugungi kunda akkumulyatorlar mobil telefonlar, maişiy texnika, elektromobillar va boşqa köplab qurilmalarda keng qöllaniladi. Şu bois, ularning energiya siğimini oşiriş, xizmat muddatini uzaytiriş va işlaş samaradorligini yaxşilaş dolzarb vazifalardan biri.

KREMNIY – ISTIQBOLLI MATERIAL

Bugungi kunda mobil telefonlar va köplab elektromobillarda litiy-ion akkumulyatorlaridan foydalaniladi. Bunday akkumulyatorlarda anod



va katod deb ataladigan ikkita elektrod mavjud. Anod materiali sifatida asosan grafit qöllaniladi. Kremniyning nazariy soliştirma siğimi grafitnikidan qariyb ön baravar yuqori. Bu esa kremniy asosidagi materiallardan foydalaniş orqali akkumulyatorlarda köproq energiya saqlaş imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Şu sababli, biz kremniy asosidagi materiallarni yaratiş va ularni akkumulyatorlarning anod qismida qöllaş ustida işlayapmiz. Biroq kremniyning yuqori siğimiga qaramay, undan foydalanişda muayyan texnologik muammolar mavjud. Akkumulyator zaryadlanib-böşatilişi davomida kremniy hajmi sezilarli darajada özgaradi. Natijada anod materiali yorilişi, yemirilişi va öz xususiyatlarini yöqotişi mumkin. Bu esa akkumulyatorning işlaş samaradorligi hamda xizmat muddatiga salbiy ta'sir körsatadi.

Bizning vazifamiz – kremniyning yuqori siğimidan foydalaniş bilan birga, uning hajmiy kengayişi oqibatlarini kamaytirişdan iborat. Buning uçun, masalan, ğovakli tuzilişga ega materiallar yaratiş mumkin. Bunday strukturalardagi böşliqlar kremniyning kengayişi uçun joy ajratib, anodning yorilişi va yemirilişini kamaytirişga yordam beradi. Hozirgi tadqiqotlarimizda aynan şunday materiallarni işlab çiqiş va ularning xususiyatlarini yaxşilaşga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

KELAJAK AKKUMULYATORLARI

Hozirgi kunda natriy-ion akkumulyatorlari uçun materiallar yaratiş ustida ham işlayapmiz. Litiy yengil va ion radiusi kiçik element bölgani sababli, zaryad taşiş jarayonida qulay xususiyatlarga ega. Natriy ionining radiusi esa litiy ioninikidan kattaroq. Şu bois, natriy-ion akkumulyatorlarida ham özige xos texnologik masalalarni



hal etiş talab qilinadi. Şunga qaramay, natriy-ion akkumulyatorlarining istiqboli porloq. Ularni, ayniqsa, statsionar energiya saqlaş tizimlarida qöllaş mumkin. Bunday tizimlarda energiya ma'lum joyda töplanadi va zarur vaqtda foydalaniladi. Bu yerda akkumulyatorning yengil yoki ixçamligi har doim ham hal qiluvçi omil bölavermaydi.

Demak, turli akkumulyator texnologiyalarining özige xos afzalliklari va çeklovlari mavjud. Muhimi, muayyan ehtiyojdan kelib çiqib, eng maqbul material va texnologiyani tanlaşdir.

ÇIQINDIDAN XOMAŞYOGA

Ilmiy işlanmalarni işlab çiqarişga tatbiq etiş va mahalliy xomaşyodan samarali foydalaniş borasida ham muhim izlanişlar olib boryapmiz. Masalan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida mis işlab çiqariş jarayonida katta miqdorda texnogen çiqindilar hosil böladi. Biz uşbu çiqindilarni qayta işlab, tarkibidan kremniyni ajratib oliş va uni tiklaş orqali akkumulyator batareyalarida qöllaş imkoniyatlarini örganmoqdamiz. Bu yondaşuv bir vaqtning özida ikkita muhim vazifani hal etişga xizmat qiladi. Birinçidan, sanoat çiqindilarini qayta işlaş orqali ularning atrof-muhitga ta'sirini kamaytiriş mumkin. Ikkinçidan, akkumulyatorlar uçun zarur materiallarni oliş xarajatlarini qisqartiriş. Ya'ni, çiqindiga aylanayotgan resursdan yangi mahsulot yaratişda foydalaniş mumkin.

Bundan taşqari, mamlakatimizda kremniy işlab çiqariş böyiça Navoiy va Angrenda zavodlar barpo etilgan. Mahalliy sanoatning kremniy va ferrosilitsiyga bölgan ehtiyojini hisobga olsak, işlab çiqariş texnologiyalarini takomillaştiriş ham katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarimiz davomida ferrosilitsiy işlab çiqariş jarayonini takomillaştiriş orqali xomaşyo va energiya resurslarini tejaş imkoniyatlari ham körsatib berildi. Jumladan, bir tonna ferrosilitsiy işlab çiqarişda 200-205 kilogramm kvarsitni tejaş hamda elektr energiyasi sarfini 20-30 foizgaça kamaytiriş imkoniyatlari aniqlangan. Bunday natijalar işlab çiqariş xarajatlarini qisqartiriş va mavjud resurslardan oqilona foydalanişga xizmat qiladi.

Elektromobillar soni ortib borayotgan bir paytda, işlaş muddati tugagan akkumulyatorlarni qayta işlaş masalasi ham dolzarb bölib bormoqda. Albatta, bu ham kelajakda jiddiy e'tibor talab qiladigan masalalardan biridir.

Elektromobillar mamlakatimizda tobora keng tarqalib borayotganini hisobga olsak, işlaş muddati tugagan akkumulyatorlarni utilizatsiya qiliş va qayta işlaş muammosi yanada dolzarb böladi. Işlatilgan akkumulyatorlarni şunçaki çiqindiga çiqarib taşlaş örniga, ularning tarkibidagi qimmatli materiallarni qayta ajratib oliş yoki texnik jihatdan yaroqli qismlaridan qayta foydalaniş imkoniyatlarini örganiş zarur. Bu orqali atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytiriş va tabiiy resurslarni tejaş mumkin.

Vasila HABIBULLAYEVA
yozib oldi.



"Çin olim xiyladan uzoqdir, uzoq,
Nurning öz soyasi bölmaydi heç çoğ.
Xusrav DEHLAVIY"

HIMOYA

BARI BOLA BIRDAY

20-noyabr – Bola huquqlari töğrisidagi konvensiya qabul qilingan kun. Ayni paytda, Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34 yilligi sanasi yaqinlaşmoqda. Har ikki hujjatning markazida inson qadri, haq-huquqi turibdi, jumladan, bola huquqi ham. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 44-moddasiga asosan, bolalar mehnatining bolaning soğliği, xavfsizligi, axloqi, aqliy va jismoniy rivojlanişiga xavf soluvçi, şu jumladan, ta'lim olişiga tösqinlik qiluvçi har qanday şakllari taqiqlandi. Birinçi marta ta'lim taşkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bölgan bolalar uçun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanişi 50-modda bilan alohida mustahkamlandi. Eng muhimi, "Oila, bolalar va yoşlar" deb atalgan yangi bob Boş Qomusimizdan joy oldi.

Oliy hujjatning 77-moddasiga köra, ota-onalar va ularning örnini bosuvçi şaxslar öz farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqiş, ularning tarbiyasi, ta'lim olişi, soğlom, tölaqonli kamol topişi xususida ğamxörlik qilişga majburdir. Davlat va jamiyat yetim hamda ota-ona vasiyligidan mahrum bolalarning har tomonlama kamol topişini ta'minlaydi, şu maqsadda xayriya faoliyatini rağbatlantiradi. 78-moddada esa bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlaş hamda himoya qiliş, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan tölaqonli rivojlanişi uçun eng yaxşi şart-şaroitlarni yaratiş davlatning majburiyati ekanligi alohida körsatilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bolaning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kafolatlaş va ta'minlaş qonunçilikda öz ifodasini topmoqda. Jumladan, Oila kodeksining 68-moddasi qaror qabul qilişga vakolatli bölgan organlar va mansabdor şaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilişda bolaning fikrini, uning yoşidan qat'i nazar, körib çiqişi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib çiqqan holda qarorlar qabul qilişi kerakligi töğrisida yangi mazmundagi jumla bilan töldirildi. Özbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik şaxslarning murojaatlari töğrisida"gi Qonuniga voyaga yetmagan şaxslarning murojaatlarini körib çiqişning özige xos xususiyatlari böyiça yangi modda kiritildi.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilda "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuçaytiriş hamda ularga nisbatan tazyiq va zöravonlik holatlarining oldini oliş böyiça qöşimça taşkiliy-huquqiy çoralar töğrisida"gi farmoni imzolanişi



jamiyat hayoti va milliy qonunçiligimizda yangi davrni boşlab bergan edi. Özbekiston Respublikasining "Bolalarni zöravonlikning barça şakllaridan himoya qiliş tizimi takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş töğrisida"gi Qonunining qabul qilinişi esa xalqimiz kutgan voqea böldi.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyevaning uşbu qonunga munosabati ham hujjatning tarixiy ahamiyatini körsatib beradi: "Yoş bolaga nisbatan zöravonlikka aslo toqat qilib bölmaydi, jazo esa muqarrar va murosasiz bölişi şart. Özbekiston Prezidenti birdaniga 5 ta kodeks va 6 ta qonunga özgartirişlar kiritişni nazarda tutuvçi qonunni imzoladi. Bolaga zulm qilgan, unga jismoniy yoki ruhiy azob bergan har bir kimsa – u xoh ta'lim muassasasi xodimi bölsin, xoh yaqin qarindoşi – javobgarlikka tortiladi. Bolaning Bolalar hayoti, soğliği, or-nomusiga tajovuz qilgan har qanday kimsa qat'iy jazodan qoçib qutula olmasligini bilişi şart".

* * *

Davlatimiz rahbari Özbekiston bolalariga murojaat qilib şunday deydi: **"Aziz farzandlarim, sizlarga baxtli va saodatli hayot eşiklarini oçadigan kalit ham, umr yöllaringizda paydo böladigan murakkab savollarning yeçimi, sinov va maşaqqatlarni yengib ötişning kafolati ham faqat bilim, bilim va bilimdir. Gözal yoşlikning har bir daqiqasini qadrlab, yangi ilm, ğoya va innovatsiyalarni, kasb va hunarlarni, ona tilimiz, boy tariximiz va madaniyatimiz asoslarini puxta egallang. Jahon tarixi va xorijiy tillarni ham astoydil örganing. Izlaniş va harakatdan heç qaçon töxtamang".**

Diyorbek SOATALIYEV
tayyorladi.

ESTAFETA



BIR BAYROQ OSTIDA

Özbekiston Respublikasi Davlat bayroği qabul qilinganining 35 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz böylab "Bir bayroq ostida" şiori ostida ötgan estafeta poytaxtda tantanavor ruhda yakunlandi. Estafeta davomida bosib ötilgan umumiy masofa 2 ming 440 kilometrni taşkil etdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda hamkor taşkilotlar taşabbusi bilan 11-18-noyabr kunlari taşkil etilgan estafeta mamlakatimizning barça hududlarini yagona maqsad va ezgu ğoya atrofida birlaştirdi. Davlat bayroqlari uçta asosiy yönaliş böylab poytaxtga olib kelindi.

Bayram tantanalari kun böyi davom etib, keçki dastur ham özige xos taassurotlarga boy böldi. "Xalqlar döstligi" saroyi maydonida taşkil etilgan dron-şou tadbir iştirokçilari va tomoşabinlar uçun unutilmas lahzalarni taqdim etdi. Osmonga kötarilgan yuzlab dronlar uyğun harakatlar orqali turli yoruğlik kompozitsiyalarini hosil qildi. Tungi osmon uzra namoyon bölgan tasvirlarda Özbekiston Respublikasi Davlat bayroği va boşqa ramzlar aks etib, zamonaviy texnologiyalar orqali milliy qadriyatlar va Vatanga muhabbat ğoyasi özige xos tarzda ifodalandi.

Estafeta mamlakatimizning turli hududlarida yaşayotgan insonlarni yagona maqsad atrofida birlaştiriş, yoş avlod qalbida milliy ğurur va Vatanga daxldorlik tuyğularini mustahkamlaşga qaratilgan muhim ma'naviy-ma'rifiy taşabbus sifatida ahamiyatli böldi.

Z.MAMATOV



MAYOQ

TILNI ASRAGAN JADIDLAR



Bundan bir asr avval Turkistonda til masalasi faqat tilşunoslar bahsi emas, millat kelajagi masalasi edi: maktabda qaysi tilda öqitiladi, gazeta qaysi tilda çiqadi, yozuv nimaga asoslanadi? Fitrat, Aşurali Zohiriy va ularning safdoşlari şu savollarga javob izlab, özbek adabiy tilining zamonaviy qiyofasi şakllanişiga ulkan hissa qöşdi.

Jarayon tabiiy ravişda maktablarda ta'lim qaysi tilda olib borilişi kerakligi masalasini ham kun tartibiga olib çiqdi. 1918-yilda Maorif şörosining yiğiliş-laridan birida boşlanğiç maktabning dastlabki uç yilida ona tilida, ya'ni, özbek tilida, undan keyingi bosqiçlarda esa umumiy adabiy turkiy tilda ta'lim beriş taklifi ilgari surildi. Bu qaror jadidlarning barçasi tomonidan bir-dek ma'qullanmadi. Şunday tarixiy şaroitda Abdurauf Fitrat boşçiligida Toşkentda "Çiğatoy gurungi" taşkil topdi. Tadqiqotçilarning aniqlaşiça, uyuşma 1918-yilning oxirgi çoragida şakllangan, 1919-yil boşida esa Milliy işlar komissarligi tomonidan rasman tasdiqlangan. Uning asosiy maqsadi Turkistondagi eski va yangi turkiy asarlarni töplaş, ona tilini jonlantiriş, luğat va adabiyotni boyitiş edi. Gurung a'zolari yangi adabiyot va adabiy tilni Navoiy davri adabiyotining vorisi deb bildi va uni milliy özbek tili sifatida yangi tarixiy şaroitda yuksaltirişni istadi.

Gurung faqat nazariya bilan çeklan-madi. 1919-yilda öqituvçilar uçun "Bitim yöllari" nomli imlo qöllanmasi naşr etildi, öşa yilning bahorida esa öqituvçilar uçun ikki oylik ona tili kursi oçildi; unda Şokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon va Fitrat dars berdi. 1921-yil yanvarida gurung taşabbusi bilan Toşkentda Til va imlo qurultoyi çaqirilib, eski imlo isloh qilindi va gurungning imlo asoslari qabul qilindi. Gurungçilar qurultoyni "Özbek qurultoyi" deb atab, faqat özbeklarning öz şevasi va öz imlosidan foydalanişini maqsad qilgani ham diqqatga sazovor. Gurung vakillari özbek tiliga yot unsurlarni kamaytiriş, me'yoridan ortiq işlatilayotgan arabiy va forsiy sözlar örniga özbek tilining içki imkoniyatlaridan foydalanişga e'tibor qaratdi. Bundan taşqari, ular yangi özbek adabiyoti va adabiy tilini yangi şaroitda yaratişga urindi.

Gurungning rasmiy faoliyati uzoq davom etmadi. 1921-yil boşida uyuşma faoliyati töxtatilib, uning işlari Maorif komissarligi huzuridagi Özbek bilim hay'atiga topşirildi, biroq ğoyalar yaşaşda davom etdi. Gurung a'zolari Fitrat, Qayum Ramazon, Elbek, Şokirjon Rahimiy, Çölpon, Botu va boşqalar keyingi yillarda ham til, imlo va yozuv masalalarida faol böldi, ayrimlari özbek yozuvini lotin alifbosiga köçiriş işida iştirok etdi. Ularning aksariyati keyinçalik qatağon qurboni böldi.

***

Fitrat til haqidagi konsepsiyasida har bir tilning özige xos imkoniyatlari mavjudligi va til öz içki qonuniyatlari asosida rivojlanişi kerakligini ta'kidladi. Şu jihatdan uning qaraşlarini progressiv purizm tuşunçasi bilan izohlaş mumkin. (Purizm – tilni begona unsurlardan tozalaş tarafdorligi.) U keng ma'noli purizm tarafdori bölib, ijtimoiy aloqa natijasida tillarning bir-biridan söz özlaştirişini e'tirof etgan holda, tilning sofligi uçun kuraşdi. "Bizning heç qaysi tilga xusumatimiz yöq", degan edi u. Fitrat özbek tilida ifodalaş imkoniyati mavjud bölgan arabça va forsça sözlarning turkiy, xususan, özbekça muqobillarini izlaş lozimligini aytadi. Uningça, özbek tilining imkoniyatlarini oçiş uçun grammatik qurilişi, luğat boyligi, şevalari va xalq oğzaki ijodini çuqur tadqiq etiş kerak. Yozuv haqidagi fikrlari ham şu mantiqqa tayanadi: "Boşqa ellarning yozuv va alifbolarida qurilgan tartib, intizom, qulaylik bizni yozuvimizda, bizni alifbomizda yöq… Bizniki tartibsiz, buzuq ham qiyin".

Fitrat özbek adabiy tilining tarixiy ildizlariga ham katta ahamiyat berdi. Uning asosiy maqsadi özbek tilining imkoniyatlarini boşqa bir tilning tayyor me'yorlari asosida belgilaş emas, balki özige xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan oçib beriş va aniq grammatik qoidalarini işlab çiqiş edi. Bu qaraşlar davr ruhi bilan hamohang edi. 1921-yilgi til va imlo qurultoyi qarorida şunday deyilgan: "özbek adabiyoti butun çet millat va qabilalarning ta'siridan qutulib çin ma'nosi bilan asl özbek xalqining adabiyoti bölsin".

U muhim bir muammoni ham tan oldi: özbek tilining aniq va tizimli grammatik qoidalarini hali töliq işlab çiqiş zarur edi. Ma'lum ehtiyojdan "Özbek tili qoidalari töğrisida bir tajriba" asari tuğildi. Ikki qism – "Sarf" va "Nahv"dan iborat bu asar özbek tilining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini izçil tavsiflaşga qaratilgan edi. "Sarf" 1925-yilda birinçi marta, 1927-yilda esa beşinçi marta çop etilgan, ya'ni, ma'lum muddat maktablarda darslik sifatida foydalanilgan. Mutaxassislar uni ona tili egasi tomonidan yaratilgan birinçi özbek tili grammatikasi, deb baholaydi. Uşbu grammatika keyinçalik yaratilgan tadqiqotlar uçun ham muhim asos böldi.

Fitrat özbek tilining tabiiy boyligini izlaşda xalq tiliga ham katta ahamiyat berdi. Uning kuzatişiça, şaharliklar nutqida arabça va forsça unsurlar nisbatan köproq uçraşi mumkin edi. Şu sababli, u qişloq şevalarini, xalq orasida keng tarqalgan doston, ertak va hikoyalarni örganişni muhim deb hisobladi. Çunki xalq oğzaki ijodida tilning tabiiy va milliy imkoniyatlari, xalqona söz boyligi va grammatik şakllari yaxşiroq saqlangan.

***

Aşurali Zohiriy maktab ta'limi uçun zarur darslik va qöllanmalarni yaratişga katta ahamiyat berdi. 1916-yilda yozilgan "Imlo" kitobida arab grafikasi asosidagi özbek yozuvida töğri yoziş qoidalari hamda punktuatsiya masalalari tizimli bayon etilgan. 1920-yillarga kelib özbek yozuvi masalasi yanada dolzarb tus oldi. Jadid ziyolilari arab yozuvining özbek tili fonologik tizimini töliq ifodalaşdagi imkoniyatlari çeklangani, harf şakllari esa tez va qulay yoziş talablariga töliq javob bermasligini ta'kidlay boşladi. 1926-yilda Bokuda ötgan turkologlar qurultoyida turkiy xalqlarning lotin yozuviga ötişi masalasi muhokama qilinib, bu borada muayyan qarorlar qabul qilindi.

Zohiriyning özbek tiliga munosabati matbuotdagi çiqişlarida ham yaqqol körinadi. 1924-yil 21-iyunda "Farğona" gazetasida e'lon qilingan "Olti yillik özbek adabiyoti (bosma sözi)ga bir qaraş" maqolasida u matbuot tilida uçrayotgan özbek tiliga yot leksik va grammatik birliklarni, ayniqsa, tatar va usmonli turk tiliga xos şakllarning ortiqça qöllanişini tanqid qiladi. Şu bilan birga, özbek tilining tabiiy imkoniyatlarini namoyon qiluvçi naşr-larni ijobiy baholaydi. Jumladan, 1920-yil 9-aprelidan "Yoş buxoroliklar" çiqargan "Teng" jurnalining atigi uç soni naşr etilgan bölsa-da, uning tili sof özbekçaligi va mazmunining muhimligini alohida ta'kidlaydi. Demak, Zohiriy özbek tilini boşqa turkiy tillardan uzib qöyişni emas, uning özige xos imkoniyatlarini asrab-avaylaşni istagan.

Zohiriyning amaliy xizmatlaridan yana biri – "Rusça-özbekça mukammal luğat" (ikki jild, 1927-1928) edi. Luğatda taxminan 34 ming söz bor; Zohiriy qozonlik "Rusça-tatarça mukammal luğat"ning tatarça tomonini özbekçaga ögirib, xalqning jonli sözlaşuv tilidan köplab söz va birikmalarni kiritgan. Zaki Validiy bu luğatni özbeklar ilmiy faoliyatining oxirgi ikki yildagi eng muhim işlaridan biri deb baholagan. Zohiriy uçun "tilni özbekçalaştiriş" luğat va terminlarni xalq tili zaxirasi bilan boyitiş demak edi. Zohiriyning til masalasidagi qaraşlari 1929-yil 29-martda "Qizil Özbekiston" gazetasida "Til, atama va imlo bahslari" rukni ostida e'lon qilingan "Til va imlo masalasi" maqolasida yanada aniq ifodalangan. Unda adabiy til va jonli sözlaşuv tili örtasidagi munosabat, adabiy tilning tayanç şevalari, terminologiya va imlo masalalari haqida fikr yuritiladi. Zohiriy yangi tuşunçalarni ifodalaş uçun imkon qadar özbek tilining içki boyligidan foydalaniş kerakligini uqtiradi; biroq öz tilida muayyan tuşunçaga mos birlik bölmasa, boşqa tillardan – arabça, forsça yoki Yevropa tillaridan söz oliş mumkin, deydi.

Bu saboq bugun ham öz kuçini yöqotmagan: til – şunçaki aloqa vositasi emas, millatning tarixi, tafakkuri va ma'naviy mulki. Uni asraş esa begona sözdan qoçiş emas, öz tilimizning içki boyligini biliş, örganiş va undan oqilona foydalanişdan boşlanadi.

Valişer ABIROV,
Toşkent davlat şarqşunoslik universiteti dotsenti,

E'zoza MAMASIDDIQOVA,
universitet talabasi



> **Fikr gar yaxşi tarbiyat topsa –**
> **Xanjar, olmosdan bölur ötkur.**
>
> **Abdulla AVLONIY**

FESTIVAL

TEATR KUNLARI

Turkistonda ğoyalar kuraşi avjiga çiqar ekan, jadidlar zamonaning eng ilğor "qurol"lariga ehtiyoj sezar edilar. Ular yangi usul maktablari va matbuot bilan bir qatorda, milliy teatr san'atiga ham tamal toşini qöydilar. Jadidlar teatrni şunçaki tomoşalar qöyiladigan sahna emas, balki barçaning "közini oçadigan", odamlar ongiga tez ta'sir qiluvçi jonli vosita – "ibratxona" sifatida körgan edilar.

Darhaqiqat, teatr inson ruhini poklaydigan, jamiyatning ma'naviy qiyofasini körsatadi-gan közgudir. Bugun biz jadidlar orzu qilgan kunlarda yaşayapmiz. Nafaqat poytaxtimizda, har bir hududda teatrlar samarali faoliyat olib borayotir.



Şu kunlarda Toşkent şahri "Respublika teatr san'ati festivali"ga mezbonlik qilmoqda. 16-noyabr kuni Özbek Milliy akademik drama teatrida tantanali oçilgan uşbu yirik san'at anjumani 21-noyabrgaça davom etib, unda respublikamizning barcha hudud-laridan kelgan teatr jamoalari eng sara spektakl-larini namoyiş etadilar. Festivaldan maqsad – teatr jamoalarining ijodiy izlanişlarini qöllab-quvvatlaş, yoş rejissyor va aktyorlarning mahoratini yuzaga çiqariş, eng asosiysi, tomoşabinlarga zamonaviy va mumtoz dramaturgiyaning eng yaxşi namunalarini taqdim etişdan iborat.

Festival dasturi boy va rang-barang. Hafta yakunigaça, tomoşabinlar e'tiboriga "Birinçi qaldirğoç", "Millat fidoyisi", "Laylaklar nolasi", "Manqurt" singari çuqur falsafiy va ma'rifiy ruhdagi asarlar, qöğirçoq teatrlarida esa bolajonlar uçun "Ali bobo va qirq qaroqçi", "Çemodan" kabi spektakllar namoyiş etiladi.

Uşbu madaniy tadbir soha mutaxassislari uçun ham öziga xos mahorat maktabi vazifasini ötamoqda. Har bir namoyişdan söng taniqli san'atşunoslar va tajribali rejissyorlar iştirokida ijodiy muhokamalar taşkil etilmoqda. Bu esa teatr jamoalariga öz yutuq va kamçiliklarini tahlil qiliş, özaro tajriba almaşiş imkonini beradi.

Bir söz bilan aytganda, sahna asarlari orqali insoniylik, vatanparvarlik, tinçlik va şukronalik kabi ezgu ğoyalarni tarannum etayotgan festival tomoşabinlar qalbida unutilmas taassurotlar qoldirişi, şubhasiz.

Jamoliddin BADALOV

JAHON AYVONIDA

YIL SÖZI

Kembrij ingliz tili luğati "human" ("insoniy") sözini 2026-yilning eng muhim sözi deb tanladi.



Luğat mualliflari bu tanlovni sun'iy intellektning kundalik hayotga keng kirib kelayotgani bilan izohladi. Endilikda mazkur söz inson va sun'iy intellekt yaratgan mahsulotlarni farqlaşda faol qöllanmoqda.

NOYOB QABILA SURATLARI



Braziliyadagi Amazonka örmonlarida taşqi dunyodan ajralib yaşovçi Ava qabilasi vakillarining noyob suratlari e'lon qilindi – 20 ga yaqin qabila a'zosi hukumat jamoasi bilan uçraşib, oziq-ovqat söragan.

"Reuters" xabariga köra, huquq himoyaçilari bu holatni qabila hududiga begonalar bostirib kirayotgani bilan izohlagan. Örmon kesuvçilar, ovçilar va çorvadorlar bosimi sababli, mahalliy xalq jiddiy xavf ostida qolmoqda.

VIZASIZ MAMLAKATLAR SONI OŞIRILADI

Qirğiziston yana 18 ta davlat fuqarolari uçun vizasiz rejim joriy etişni hamda xorijliklarning mamlakatda vizasiz qoliş muddatini 30 kundan 60 kungaça uzaytirişni rejalaştirmoqda.



"24.kg" xabariga köra, tegişli qaror loyihasi Iqtisodiyot va tijorat vazirligi tomonidan jamoatçilik muhokamasiga taqdim etilgan.

UÇUVÇISIZ YUK SAMOLYOTI



Xitoyda dunyodagi eng yirik uçuvçisiz yuk samolyoti sifatida taqdim etilayotgan "W5000" ilk sinov parvozini muvaffaqiyatli amalga oşirdi.

"Naked Science" xabariga köra, samolyot beş tonnagaça yukni 2600 kilometr masofaga taşişga qodir. Avtonom tizimda parvoz qiluvçi havo kemasi yerdagi mutaxassislar tomonidan nazorat qilinadi.

AHOLI SONI TAHLILI

2050-yilga borib mamlakatlarning aholi soni böyiça jahon reytingi sezilarli özgaradi – Hindiston aholisi 193 millionga köpayişi, Xitoyniki esa 121 millionga kamayişi kutilmoqda.



AQŞ Aholini röyxatga oliş byurosi ma'lumotlariga köra, ayrim yirik davlatlar aholi qisqarişiga duç keladi. Nigeriya esa AQŞni ortda qoldirib, dunyoda uçinçi öringa çiqişi mumkin.

Şaxmat ham, şe’r ham abadiy...

Boşlanişi 1-sahifada.

Özbekiston Qahramoni, Özbekiston xalq şoiri Erkin Vohidov şaxsiyati va ijodi haqida muşohada yuritganda, köz oldimizda nafaqat buyuk söz zargari, balki millatning teran aql sohibi, yuksak madaniyat egasi gavdalanadi. Buyuk şoirning hayoti, dunyoqaraşi va tafakkur tarzi öziga xos ma’rifat va ibrat maktabi edi. Men bu zotning salkam qirq yil davomida yaqin maslakdoşlari, millat ziyolilari bilan qurgan va özbek madaniyati tarixida betakror hodisaga aylangan “Şaxmat gap” yiğinlarining jonli guvohi bölganimdan faxrlanaman.

Şaxmatçilar davrasi şunçaki döstlar diydori emas, balki şiddatli bahslar, aql va mantiq töqnaşadigan haqiqiy tafakkur maydoni edi. Bu yiğinlar ramziy ma’noda öşa davr milliy tafakkurining siyosiy va ijtimoiy barometri vazifasini bajargan, desak, aslo mubolağa bölmas. Öşa paytlarda hali maktab yoki universitet darsliklarida uçramaydigan va rasmiy tarix sahifalariga kirib ulgurmagan Amir Temur dahosining jozibasi – Sohibqironning şaxmatga bölgan favqulodda moyilligi va bu sirli öyinning davlat boşqaruvidagi asl hikmatlari haqidagi noyob ma’lumotlarni men ilk marotaba aynan Erkin akaning özidan eşitganimni alohida ta’kidlaşni istardim.

Garçi öşa yillarda tarixçi olimlar tomonidan Ibn Arabşoh asarlari özbek tiliga mahorat bilan tarjima qilingan bölsa-da, bu manbalardagi murakkab şaxmat çizmalari keng jamoatçilik uçun hanuz mavhumligiça qolayotgan edi. Ustoz şoirimiz Fransiyaga safari davomida Parij Milliy kutubxonasining nodir qölyozmalar fondiga kiradi. U yerda saqlanayotgan qadimiy Şarq qölyozmalarining asl nusxalarini öz közi bilan körib, undagi Amir Temur davriga oid şaxmat çizmalari va şarhlari bilan tanişadi. U kişi özining bu kaşfiyotlari, yurakni hayajonga soluvçi tarixiy haqiqatlarni navbatdagi “Şaxmat gap” yiğinida qadrdon döstlariga çeksiz ğurur, yuksak ehtiros bilan sözlab bergandi.

Erkin aka Parij fondlarida tanişgan öşa noyob manba maşhur arab solnomaçisi Ibn Arabşohning “Ajoib al-maqdur fi navoib Temur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) nomli asarining XV asrga oid qadimiy nusxasi edi. Uşbu nodir qölyozmada bayon etilişiça, Amir Temurga oddiy 64 katakli şaxmat taxtasi torlik qilgan. U zot roppa-rosa 112 katakdan iborat maşhur “Şatranji kabir” öyiniga asos solgan. Bu öyinda tuya, jirafa, fil, dev va ayğoqçi kabi qöşimça harbiy figuralar harakatlangani öşa Fransiyadagi qölyozma sahifalarida muhrlangandi.

Diqqatga sazovor jihati, mana şu uluğvor intellektual an’analarni davrlar oşa XX asrning 20-30-yillarida yaşab ijod qilgan jadid ziyolilarimiz davom ettirdi. Qatağon qiliçlari yalanğoçlangan, erkin siyosiy va ijtimoiy bahslar taqiqlangan öşa oğir davrlarda Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Çölpon, Elbek kabi millat fidoyilari aynan şaxmat taxtasi atrofida töplanişardi. Laziz Azizzoda va Habibulla Qodiriyning qaydlariga köra, Toşkentning Samarqand darvozasidagi Qodiriy xonadonida yoki Kökça dahasining sölim Boğ köçasidagi ziyolilar davrasida tez-tez uçraşuvlar taşkil etilib, şaxmat musobaqalari bölar ekan. Mana şu uluğ zanjir – yuksak zarofat, beğaraz kulgi va aql sinovlari XX asrning ikkinçi yarmiga kelib, “Şaxmat gap” körinişida Erkin Vohidov boşliq ziyolilar davrasiga oltin meros bölib ötgan bölsa, ne ajab. Bu, gözal vorisiylikning ajoyib namunasi emasmi?

“Şaxmat gap” yiğilişlari salkam qirq yil – yigirmançi asr 60-yillarining oxiri va yangi ming yillikning boşigaça davom etgan betakror norasmiy tafakkur akademiyasiga aylandi. Uşbu davraning faol qatnaşçilari bölgan uluğ zotlar nomini bugun özbek millati faxr va ehtirom bilan tilga oladi: atoqli adabiyotşunos olimlar, Özbekiston Qahramonlari Ozod Şarafiddinov hamda Ibrohim Ğafurov, Milliy universitet dotsenti Rahmatulla Inoğomov, xalqaro darajadagi şaxmat hakami Mamajon Muhitdinov, mohir şaxmatçi Uluğbek Elbekov, taniqli olim Anvar Abdusamadov, el ardoğidagi jarroh Mahmud Yunusov, iqtisodçi Husnitdin Muhitdinov va şaxmat ustalari Akram Toşxöjayev, Anvar Inoqov, Alovuddin Husniddinov... Bu uluğlar davrasining maş’ali, uning urib turgan tolmas yuragi, şubhasiz, Erkin Vohidov edi. Keyinçalik ustoz şoir davlat va jamoat arbobi sifatida nihoyatda mas’ul vazifalarda işlab yurgan, vaqti soniyalarigaça hisoblangan eng band paytlarida ham bu yiğinda qatnaşişni kanda qilmadi. Muhim davlat işlari, kundalik çarçoqlar va ulkan ijtimoiy yuklar şoirni özi talpingan uşbu ma’naviyat oşyonidan tösib qola olmasdi. “Şaxmat gap” böladigan kuni u kişi alohida bir mas’uliyat va soğinç bilan hammadan avval yetib kelar, özining nurli tabassumi, yuksak viqori va odamiylik fazilati bilan davraga özgaça ruh va fayz bağişlardi.



“Şaxmat gap” yiğini iştirokçilari Erkin Vohidov xonadonida. Birinçi qatorda (öngdan çapga): Uluğbek Elbekov, Anvar Abdusamadov va Rahmatulla Inoğomov. Orqa qatorda: Anvar Inoqov, Erkin Vohidov va Ibrohim Ğofurov. 1986-yil.

Şaxmatçi ulfatlar şunçaki olim yoki ijod kişilarigina bölib qolmay, şaxmat ilmining nihoyatda nozik va teran bilimdonlari ham edilar. Erkin aka boşçiligidagi bu yiğin a’zolari şaxmat olamidagi eng sönggi yangiliklarni, grossmeysterlar örtasidagi bahslarni katta qiziqiş bilan kuzatib borardi. Uçraşuvlarda dunyoning eng maşhur şaxmatçilari öynagan murakkab partiyalarni taxtaga birma-bir terib, undagi yaşirin strategiya va taktik jumboqlarni katta mahorat bilan tahlil qilişardi. Aytiş joizki, ahli donişlarning bu öyinlari şunçaki quruq maşğulot yoki sovuq his-hayajondan yiroq musobaqa emasdi.

Bu davrada öziga xos gözal va yuksak madaniyatli öyin qoidalari mavjud edi. Iştirokçilar hazil va çiroyli kinoya tariqasida maxsus öyin protokollarini yurgizişar va bu turnirni katta iftixor bilan “Jahon birinçiligi” deb nomlaşardi. Davraning muqim boş hakami esa, odatdagidek, xalqaro toifadagi hakam – otaxon Mamajon Muhitdinov bölardi. Mamajon aka xuddi Butunjahon şaxmat Olimpiadasi finalini boşqarayotgandek jiddiy va rasmiy qiyofada turnir varaqalariga qaydlar kiritar, final protokollarini imzolardi. Bu holat yiğinga yanada zavqli, jozibador va unutilmas, samimiy ruh bağişlardi. Ozod Şarafiddinov va azaliy raqibi Rahmatilla Inoğomovning kutilmagan öyinlari va ötkir yurişlariga javoban Erkin Vohidovning nozik yumor bilan yöğrilgan bayti yoki latif mutoyibasi yangrardi. Raqib tomon esa bunga zarofat va ötkir askiya bilan javob qaytarardi.

Bu maydonda ğolib ham, mağlub ham birdek mamnun bölar, davraning ajabtovur ma’naviy zavqidan ruhlanardi. Yoniq va şiddatli lahzalarni anglamoq uçun uni faqat köriş kerak edi. Bu yerda çinakam, samimiy va hayotbaxş dramatizm bor, ammo unda aslo alamzadalik yoki xusumat yöq; davrada faqat va faqat tafakkurning gözal zavqi, aql va oliyjanoblik uyğunligi hukm surardi. Bahslarni taşqaridan kuzatgan odam, u yerda oddiy öyin emas, balki oldindan mohirlik bilan yozilgan, kulgi va ziddiyatga töla klassik spektakl ijro etilayotganini his qilib turardi.

Tafakkur spektaklining boş rejissyori esa – ustoz, söz va aql zargari Erkin Vohidov edi. Yiğin oyda bir – yakşanba kuni ertalab soat 10 da boşlanib, to tun yarmi – soat 24 gaça bir lahza ham susaymasdan davom etardi. Uşbu zabardast siymolarni şunça soat davomida bir joyga zanjirband qilib, soatlar ötganini sezdirmay uşlab turgan asl kuç – şaxmatga bölgan çeksiz muhabbat hamda Erkin Vohidov va u kişi atrofidagi döstlarining yuksak intellektual salohiyati, özaro mehr-oqibati edi.

Uşbu norasmiy klubning nufuzi va obrösi vaqt ötib şu qadar balandladiki, unga dunyoning eng maşhur jahon şaxmatçilari ham taşrif buyurişni özlariga yuksak şaraf deb bilişdi. Özbekistonning ilk grossmeysteri Georgiy Agzamovdan tortib, jahon çempionlari Anatoliy Karpov va Garri Kasparov ham Toşkentga safar çoğida uşbu fayzli özbekona davraning aziz va qadrli mehmonlari bölişgan.

Ayniqsa, 2004-yilda Rustam Qosimjonov jahon çempioni bölib, dunyoni lol qoldirganida, uşbu ulfatlarning quvonçini bir körsangiz edi! Buyuk zafar xabarini eşitgan şoirning közlaridagi quvonç yoşlari, qalbidan toşib çiqqan milliy ğurur tuyğularini tasavvur etiş qiyin edi. Negaki, Rustam Qosimjonov çempionlik şohsupasiga çiqişdan avval mana şu tabarruk davrada dona surgan, Erkin Vohidov va Ozod Şarafiddinov kabi millat uluğlarining duosi – oq fotihasini olgan edi.

Şoir özi yillar davomida qalb qöri bilan ardoqlagan şaxmat an’anasi mana şunday jahonşumul meva berganidan behad baxtiyor bölgandi. Uluğ ustozlarning birin-ketin bu yoruğ dunyoni tark etişi (ruhlari şod bölsin!) bilan özbek ziyolilarining noyob javohiri bölgan “Şaxmat gap” yiğinlari ham öz faoliyatini yakunladi. Ammo Erkin Vohidov asrab-avaylagan ma’naviy meros, teran tafakkur maktabi aslo yöq bölib ketgani yöq. Bugun özbek yoşlarining dunyoda şaxmat tojini heç kimga bermay kelayotgani, Butunjahon şaxmat Olimpiadalarida oltin medallarni qölga kiritayotgani zamirida öşa uluğ ustozlar poydevorini qöygan intellektual iqlim, ma’naviy tarbiyaning hissasi beqiyos.

Bugun ustoz şoirning 90 yillik tavalludi arafasida biz uşbu xotira va tarixiy haqiqatlarni eslaş orqali ularni kelajak avlodga yetkazişni özimizning muqaddas burçimiz deb bildik. “Şaxmat gap” şunçaki döstlarning uçraşuvi emas, u Erkin Vohidov şaxsiyati va dahosi atrofida jipslaşgan, millatning aql-zakovatini eng oğir yillarda ham sof holda asrab qolgan buyuk bir maktab edi. Tafakkur taxtasida boşlangan uşbu yuksak va xayrli öyinlar esa bugun yangi avlodlar qalbida yangi-yangi jahonşumul zafarlar timsolida izçil davom etmoqda.

Yorqin INOĞOMOV,
yozuvçi

ÖQILMAGAN SAHIFALAR

Bir ijodkor döstim kuyinib aytib qoldi: “Yaqinda tumanimizda ötkazilgan adabiyot öqituvçilarining yiğilişida qatnaşar ekanman, öqituvçilardan: “Abdulla Gulşaniy haqida ham öquvçilarga ma’lumotlar berasizlarmi?” deb söradim. Avvaliga ular ajablanib bir-birlariga qarab olişdi. Keyin köksiga “a’loçi” nişonini taqqan muallim menga qarab dedi: “Anovi “Zarbulmasal”ni yozganni aytyapsizmi?..” Indamadim, ammo iç-içimdan bir nima uzilib ketgandek böldi.

Ey, döstim, mana, yurtimiz Istiqlolga erişganiga ham öttiz beş yildan oşdi. Ayting, qaçon bu loqaydlik degan balodan qutulamiz-u, özligimizni anglaymiz?..”



ABDULLA GULŞANIY KIM EDI?

* * *

Ğazalxon şoir, tarjimon, aruz va muammo ilmining bilimdoni Abdulla Abdurahmon öğli Gulşaniy 1898-yil mart oyida Şahrisabzning Zingaron mahallasida kosib oilasida tuğilgan. Olti yoşdan eski maktabda öqib, ön uç yoşida Qur’oni Karimni yod oladi va mudarrislarning sinovidan ötgaç, “qori” unvoniga erişadi. Ön sakkiz yoşida Mir Arab madrasasi tolibi böladi. Navoiy, Dehlaviy, Fuzuliy, Jomiy, Firdavsiy, Bobur asarlarini örganiş bilan birga, özi ham Gulşaniy taxallusi bilan ğazallar yozib, tez orada şoir bölib taniladi. Döstlari bilan birga ğazallarini jamlab, “Tuhfat ul-ahbob”, ya’ni, “Döstlar sovğasi” nomli devon tuzadi.

Abdulla Gulşaniy 1917-yilning yozida mahalladoşi mulla Xudoyqulning qizi Hikoyatxonga uylanadi. Öşa yillarda ikki sevişgan dilning bir-biriga yöllagan işqiy maktubi el-ulus orasida maşhur bölgan.

Hikoyatxon:
Sizga yozib yubordim işqimning dostonini,
Bilmamki, bu xatodir yoki savob bölğay?
Abdulla:
Şe’ringizni öqiganda hayratda qolmagan kim,
Tahsin-u ofarinlar ham behisob bölğay.
Hikoyatxon:
Köksimdagi muhabbat öti şaroralikdur,
Har damda mavj ursa, dillar kabob bölğay.
Abdulla:
Hajringning dostonin yozsam ado bölurmi,
Birlab kitob emas, minglab kitob bölğay.
Hikoyatxon:
Munça şirin sözingiz, magar maseh erursiz,
Jonsiz tanimda lazzat jondek şarob bölğay.
Abdulla:
Zulfing qarosidin oydek yuzingni körsat,
Toki, bu dardmanding mast-u xarob bölğay.
Hikoyatxon:
Mehr-u muhabbatingiz siynamda naqş bölsa,
Tasviringiz dilimda çun oftob bölğay.
Abdulla:
Işq içra sabrsizlik oxir bu hola yetdi,
Bir körmasam jamoling menga azob bölğay.
Hikoyatxon:
Işq-muhabbatingiz albatta sir tutingiz,
El içra foş bölsa, sizga itob bölğay.
Abdulla:
Tokaygaça bu sirni el içra foş qilmay,
Kundan kun iştiyoqim gar behisob bölğay.
Hikoyatxon:
Işq içra har ikkovni maqsadimiz bir erur,
Maqsadda bölsa birlik, ul bexilof bölğay.
Abdulla:
Hijron azobi içra maqsad erur visoling,
Bu maqsudim haqiqat yoki sarob bölğay.
Hikoyatxon:
Sizga aytur Hikoyat sabr-u tahammul aylang,
Arz aylayin dadamga, yaxşi javob bölğay.

Ammo, afsuski, ikki yoşning visol onlari uzoqqa çözilmaydi...

Yoş Abdulla Gulşaniy Buxoroda Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxöja Behbudiy, Fayzulla Xöjayev, Hamza Hakimzoda bilan tanişib, “Yoş buxoroliklar” taşkiloti va jadidlar harakatining faol a’zosiga aylangan. Amirlik ayğoqçilari 1919-yilning bahorida uni otasining uyida qölga olib, Şahrisabz begi Said Akromxon töraning zindoniga taşlaydi. Abdulla zindondaligida qora niyatli kimsalar Hikoyatxonga “Abdullani zindonda osib öldirişdi”, degan xabarni yetkazişgan. Sevganidan ayrilgan ön töqqiz yoşli suluv kelinçak zahar içib, joniga qasd qiladi.

Abdulla Gulşaniy Hikoyatxonga bağişlab köplab ötli ğazallar bitadi.

Men ul oy husn-u jamolin körmasaydim, koşki,
Bir körib Majnuni şaydo bölmasaydim, koşki,
Furqatiy işq içra bundoğ kuymasaydim, koşki,
Ğurbat-u dard içra bundoğ töymasaydim, koşki,
Yo ani körgan bilan ham suymasaydim, koşki...

* * *

Endi Abdulla Gulşaniyning keyingi taqdirini bayon etsak.

Hokimiyat sovetlar qöliga ötgaç, u uzoq yillar Qarşi, Samarqand, Namangan, Buxoro viloyatlarining çekka tumanlarida turli lavozimlarda işladi. Qoraköl tumani “Çorvador” gazetasi muharriri ham böldi. 1941-yildan 1978-yilning 28-dekabriga qadar Qamaşi şahrida yaşadi va 80 yoşida vafot etdi.

Abdulla Gulşaniyni 1962-yilda Toşkentga ÖzFA Til va adabiyot institutiga işga taklif etişgan. U qisqa muddat içida Abdurahmon Jomiyning “Risolai manzuma” asarini forsçadan özbek tiliga tarjima qiladi. Şuningdek, Alişer Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” asaridan 1000 baytni, “Xazoyin ul-ma’oniy” asaridan 600 satrli muammoni yeçadi. Bundan taşqari, Nişopuriyning “Muammo fani qoidalari haqida” kitobidan 6654 satr, “Muammo qoidalari” risolasidan 1340 satr, “99 nomli muammo” kitobidan 650 satr muammoli şe’rni özbek tiliga ögiradi.

Gulşaniy domladan bizga 2 jilddan iborat “Gulistoni Gulşaniy” devoni, 3 jilddan iborat forsiyda bitilgan şe’rlar töplami, özining muammo va çistonlari jamlangan “Muammiyot” asari, “Töy-u töyona”, “Ariza”, “Kunlarim” dostonlari meros bölib qolgan. Şoirning jami 16 ming 854 misradan iborat adabiy merosi Toşkentda qölyozmalar institutida saqlanmoqda.

Adib Sa’dulla Siyoyev 1971-yilda Qamaşiga kelib, Abdulla Gulşaniy bilan suhbat qurgan va “Hukumatning avliyosi” degan badia yozib, “Guliston” jurnalida e’lon qilgan. Sa’dulla Siyoyev: “Şunça qölyozma kitoblar yozibsiz. Bularni biror yerda bostirsangiz bölmasmidi?” – deb söraganida, Gulşaniy: “Mana, oqqa köçirib, tayyorlab qöydim. Kimga kerak bölsa, çiqarib olar”, deb javob beradi.

* * *

Qamaşi şahri yaqinida Qamay degan qişloq bor. Qişloq özining dostonçi baxşilari va tilimi tilni yoradigan qovunlari bilan maşhur. Darvoqe, bu makondan taniqli jarroh, şoir va adib, tibbiyot fanlari doktori Jumanazar Beknazar yetişib çiqqan. Qamayliklar Abdulla Gulşaniy qalamiga mansub “Kördim Qamayda bir pari” şe’rini hamon töylarda, bazmlarda aytib yurişadi.

Kördim Qamayda bir pari, hayronidir yoşi-qari,
Ketdi ravon uyi sari, bir gavhari kimyo ekan.
Ovorasi böldim netay, qayga boşim olib ketay?
Aslo Qamay bormay ketay, bir fitnalik navo ekan.
Işqin ani men mubtalo, qilmay dedim könglimga jo,
Bölmas ekan, vo hasrato, mumkin emas savdo ekan.
Boz körsaydim ani jonim, nisor etsam edi qani,
Olam degan bu Gulşaniy, bir oşiq-u şaydo ekan.

* * *

Abdulla Gulşaniyning şogirdi, jurnalist, şoir va adib Abdivoy Rahim tuman gazetasida işlab yurgan kezlarida şoir bilan köp bora uçraşib, xotiralarini yozib olgan. Oradan yillar ötib, uning yelib-yugurişlari tufayli Abdulla Gulşaniyning “Alvido” nomli ğazallar töplami va “Abdulla Gulşaniy” nomli xotiralar kitobi naşr etildi. Ustozining hayoti va ijodi haqida önlab maqolalar, “Tongda söligan lola” nomli pyesa yozib, çop ettirdi. Kunlarning birida u kişi qölimga bir neçta varaq tutqazib dedi:

– Şularni kompyuterda köçirib bersang, bilasanmi, yanagi bahorda Abdulla Gulşaniy boboning tuğilganiga 120 yil töladi. Şahrisabz hokimiga xat taşlamoqçiman. Axir, Şahri Keş – allomaning tuğilgan şahri. Bir öylab körişar…

Oradan ança kunlar ötib, domlani yana uçratib qoldim.

– Maşina yollab, Şahrisabzga bordim. Afsus, hokim qayoqqadir ketgan ekan. Yordamçisiga xatni taşlab, tayinlab keldim. Biror natija bölib qolar…

Abdulla Gulşaniyning merosi hali örganilgan emas. Kunlarning birida ÖzFA Abu Rayhon Beruniy nomli şarqşunoslik ilmiy tekşiriş instituti katta ilmiy xodimi, qator öqişli kitoblar muallifi Abdusattor Jumanazardan bu haqda söraganimda, u şunday dedi:

– Abdulla Gulşaniy ajoyib ğazalnavis şoirgina emas, yetuk olim va tarjimon, islom ilmining bilimdoni bölgan. Uning ilmiy-adabiy merosini bir neçta olimlar örgangan. Ammo bu merosni keng ommaga yetkaziş, ya’ni, kitob qilib çop etişga qolganda, mablağ masalasi muammo bölib turibdi…

Ha, Abdulla Gulşaniy Qaşqadaryo vohasidan yetişib çiqqan yetuk ijodkor edi. U kindik qoni tökilgan Şahrisabzni bir umr soğinib yaşadi va taqdir hukmi bois, Qamaşida umrguzaronlik qildi. Alloma ijodini elning ma’naviy merosiga aylantiriş haqida avvalo şahrisabzlik va qamaşilik mutasaddilar jon kuydirişlari lozim, deb öylaymiz.

Örolboy QOBIL

KÖRGAZMA

SAN’AT va SUN’IY ONG UÇRAŞUVI



Joriy haftada poytaxtimizdagi “Akademiya” galereyasida Özbekiston xalq rassomi, “Fidokorona xizmatlari uçun” ordeni sohibi, Özbekiston Badiiy akademiyasi akademigi Javlon Umarbekovning “Absurdlar” nomli körgazmasi bölib ötdi. San’at arbobi tavalludining 80 yilligi munosabati bilan taqdim etilgan asarlar muallifning zamonaviy dunyoga munosabati va inson tafakkuridagi evrilişlar xususidagi muşohadalarini aks ettirgani bilan e’tiborlidir.

AKSDAGI ASL KIM?

Bugun inson hayotiga kirib kelgan sun’iy ong nafaqat mehnat jarayoni, axborot oliş va muloqot usullarini, balki fikrlaş tarzimizni ham özgartirmoqda. U matn yozadi, tasvir yaratadi, musiqa bastalaydi, savollarga javob beradi,



qaror qabul qilişda kömaklaşadi. Biroq u nimani anglaydi? Uning imkoniyatlari qayergaça boradi? Inson özi yaratgan aql bilan qanday munosabat örnatişi kerak?

Javlon Umarbekov bu savollarga tayyor javob berişga şoşilmaydi. “Men sun’iy intellektni na tahdid, na najot deb qabul qilaman. Men uçun uning hayotimizga qanday kirib kelayotgani va uning tuzilişini sezilmas tarzda özgartirayotganini kuzatiş qiziqroq”, deb yozadi rassom körgazmaga ilova qilingan katalogda. Rassom zamonaviy texnologiyalarni insoniyatning ming yillik tafakkuri, afsonalari va madaniy xotirasi bilan qiyoslaydi. Natijada ötmiş va bugun, tabiiylik va sun’iylik, inson va maşina örtasidagi murakkab munosabatlar ranglar, obrazlar va ramzlar orqali namoyon böladi.

“Sönggi nigoh” asarida qadimgi yunon mifologiyasining maşhur qahramoni Narsiss obrazi zamonaviy texnologik muhit bilan boğlanadi. Ma’lumki, Narsiss suvdagi öz aksini körib, unga mahliyo bölib qoladi. U özini kuzatar ekan, asl va aks örtasidagi çegarani yöqota boradi. Umarbekov talqinida esa qahramon qarşisida ulkan orbital stansiya paydo böladi. U bir vaqtning özida maşina, qal’a va yangi ong timsolini eslatadi. Rassom bu obraz orqali sun’iy intellekt özini inson deb öylayotganini ta’kidlaydi. Axir, uning xotirasi, bilimi, tili va xatolari ham inson tomonidan yaratilgan-ku. U bizning ma’lumotlarimiz asosida örganadi, fikrlaş uslubimizni özlaştiradi. Biroq vaqt ötişi bilan insonning özi ham maşina javoblari, tavsiyalari va qarorlari orqali dunyoga qaray boşlaydi.

Şunda qiziq bir savol tuğiladi: maşina insonning aksimi yoki inson tobora maşinaning aksini köra boşlayaptimi? “Men bu yerda kim asl, kim aks ekanini bilmayman. Balki bir payt kelib bu savolning özi ahamiyatini yöqotar”, degan mazmundagi rassom muşohadasi asarning falsafiy mohiyatini oçadi.

QÖRQUVMI YOKI RAQIB?

“Mutafakkir” asarida inson va maşina bir-biriga qarama-qarşi qöyiladi. Maşina ekranlar, hisoblaş tizimlari va axborot muhiti bilan qurşalgan. Inson esa uning qarşisida öz tafakkuri va anglaş qobiliyati bilan namoyon böladi. Rassom inson bir fikrga keliş uçun yillar sarflaşi, maşina esa bir soniyada millionlab variantlarni tahlil qilişi mumkinligini ta’kidlaydi. Ammo tezlik hali anglaş degani emas.

“Raqs algoritmi” asarida ham ana şu muammo boşqa bir badiiy obraz orqali ifodalanadi. Qadimgi Hind falsafasida olamning harakati, yaratiliş va vayron böliş jarayonlari bilan boğliq Şiva raqsi zamonaviy algoritmlar bilan yonma-yon keladi. Bu yerda harakat, özgariş va yangilaniş ramzi bölgan qadimiy obraz zamonaviy texnologiyalar bilan uyğunlaşadi. Rassom uçun muhim masala: taşqi ritm qançalik tezlaşmasin, inson özining içki markazini saqlab qola oladimi?

“Sönggi istak” asarida Olovuddin va jin haqidagi qadimiy afsona zamonaviy ma’no kasb etadi. Rassom jin obrazini insonning hali öz xohişlarini boşqarişni örganmagan holda, ularning ijrosini talab qilişi bilan boğlaydi. Bugun sun’iy intellekt ham köplab sörovlarga javob beradi, yeçimlar taklif qiladi, başoratlar qiladi va inson topşiriqlarini bajaradi. Biroq uning muhim xususiyati bor: u berilgan topşiriqni bajarişi



mumkin, ammo uning ortidagi insonga xos ma’noni anglaşi şart emas.

“Raqib illyuziyasi” asarida Don Kixot va Sanço Pansa obrazlari orqali insonning noma’lum narsaga munosabati yoritiladi. Don Kixot tegirmonlarni devlar deb qabul qilgani kabi, bugun ham inson sun’iy intellektga turliça munosabatda bölmoqda. “Qörquv köpinça voqelikdan köra aniqroq manzara çizadi”, degan iqtibos bu asarning eng muhim xulosalaridan biridir.

Şuningdek, “Qoçqinlar” asarida ham inson va algoritm munosabati boşqa bir nuqtayi nazardan körib çiqiladi. Inson sun’iy intellektga yöl tanlaşni işonib topşirişi mumkin, ammo algoritm köplab yönalişlarni körsatgani bilan ularning qaysi biri haqiqatan töğri ekanini inson örnida hal qila olmaydi. Rassom bu borada şaxsiy tanlov va mustaqil nigohni saqlab qoliş zarurligini ta’kidlaydi.

JAVOB EMAS, SAVOL MUHIM

Körgazma katalogi sahifalarida “Ğalaba kodi”, “Keçirim qiyofalari”, “Aqlli insondan keyin” va “Özimga maktub” kabi asarlar nomlari ham uçraydi. Ularning nomlanişidayoq insonning özligi, kelajak, xotira, ma’naviy tanlov va öz-özi bilan muloqot qiliş kabi keng mavzularga işora bor. Ayniqsa, “Aqlli insondan keyin” nomi insoniyat sivilizatsiyasining keyingi bosqiçi haqida öylaşga undaydi.

Javlon Umarbekovning “Absurdlar” körgazmasidagi eng muhim jihat şundaki, rassom tomoşabinga muayyan xulosani singdirişga urinmaydi. Uning uçun bugungi davrning eng muhim hodisasi – insoniyat va özi yaratgan yangi ongning uçraşuvidir. “Men javob izlamayman. Savolning qanday özgarayotganini kuzataman”, deydi muallif.

“Absurdlar” – bu faqat sun’iy intellekt haqidagi körgazma emas. Bu insonning özi yaratgan dunyo oldidagi mas’uliyati, tezlaşib borayotgan zamonda özligini saqlaşga intilişi va kelajak bilan yuzlaşuvi haqidagi badiiy mulohazalardir. Ehtimol, körgazmaning eng muhim savoli ham şu: biz yangi ong yaratyapmiz, ammo uning qarşisida öz insoniyligimizni saqlab qolişga qançalik tayyormiz?

Muyassar IBROHIMOVA

TAQDIMOT

Uluğ jadid Abdulla Qodiriyning “Ötkan kunlar” romani joriy yilda Tehron şahridagi “Xiradgon” naşriyotida “Rözgori guzaşta” nomi bilan çop etilgani haqida xabar bergan edik. Kuni keça Abdulla Qodiriy uy-muzeyida mazkur muhtaşam naşr taqdimoti bölib ötdi.

Tadbirda adibning nevarasi Xondamir Qodiriy, tarjimon – Özbekiston va Tojikiston Yozuvçilar uyuşmasi a’zosi Yunus Imomnazar, Eron Milliy kutubxonasi va diplomatik korpus vakillari hamda adabiyotşunoslar iştirok etdi.



“ÖTKAN KUNLAR” BUGUNGI KUNIMIZDA

“Ötkan kunlar” singari özige xos badiiy uslub, tarixiy atamalar, milliy kolorit va xalqona iboralarga boy asarni boşqa tilga ögiriş tarjimondan katta mas’uliyat va çuqur bilim talab etadi. Ayniqsa, Qodiriy ijodiga xos nozik kinoya, obrazlar ruhiyati, davr manzarasi va özbekona iboralarning mazmunini boşqa tilda tölaqonli ifodalaş oson emas. Mutarjim Yunus Imomnazarning ta’kidlaşiça, u roman tarjimasi ustida tört oy davomida iş olib borgan, unga tayyorgarlik uçun esa bir neça yillar sarflangan.

Tadqiqotçi Dalerşoh Ne’matov uşbu tarjima haqida şunday deydi: “Tarjimaning tili ravon bölib, öquvçining zavqiga mos keladi. Köp holatlarda tarjimon sözma-söz tarjimadan özini tiyib, bundan köra his-tuyğular, ijtimoiy muhit va muallifning uslubini yetkazişga uringan. Bu usul “Ötkan kunlar”ning ham lingvistik, ham estetik xususiyatlarini namoyon qiladi. Yunus Imomnazarning tarjima mahorati nafaqat asl mazmunga sodiqlikda, balki adabiy va estetik fazoni yaratişda ham namoyon böladi, bu esa öquvçini qahramonlar va roman muhiti bilan ular yaşagan vaqt va makonda birlaştiradi. Quvonarli jihati, “Ötkan kunlar” romani mazkur tarjima orqali dunyo miqyosida keng tarqalib, muxlislari soni yanada oşadi. Çunki fors tilida sözlaydigan millionlab aholi dunyodagi köp kitob mutolaa qiladigan xalqlar safiga kiradi”.

Taqdimot davomida adabiy hamkorlik yönalişlari ham muhokama qilindi. Xususan, Tehrondagi “Kitob boği” Eron Milliy kutubxonasi vakillari ikki mamlakat ijodkorlari örtasida mustahkam aloqalar örnatiş, özbek va fors yozuvçilarining bir-birlari bilan yaqindan tanişişi uçun imkoniyatlar yaratiş yuzasidan takliflarini bildirdi. Şuningdek, Özbekiston va Eron yozuvçilarining asarlarini özaro tarjima qiliş, ularni ikki mamlakat kitobxonlariga yetkaziş hamda adabiy meros almaşinuvini kengaytiriş masalalariga e’tibor qaratildi.

Abbos ŞOYIMOV

YANGI KITOB

TARIX PARÇALARI



“1865-yilda Toşkentni bosib olgan çor qöşini janubga köz tikdi, 1867-yilda yonginadagi Xovosni egallab, Samarqandga qarab siljidi. Mamlakat bosqinçi oyoği ostida qoldi... Normuhammad hoji qattiq taşvişga tuşdi”...

Bundan söng ötgan asrning 30-yillarini tasavvur qiling. Andijonlik Egamnazarboy “quloq” qilinib, Ukrainaning Xerson viloyatiga surgun bölyapti. Şu yerda qiziq hodisa röy beradi. Akasi Beknazar söfining öğli Rahmatqul: “Egamnazarboy amakim uzoq yerlarga ketyapti, öğli yöq, unga kömakçi kerak. Joyi jannatda bölgur otam bir kuni, kenja öğlimni senga öğil qilib beraman, deganlarini öz quloğim bilan eşitganman”, deya yigirma ikki yoşli ukasi Ahmadqulni qöşib yubormoqçi böladi – “Ham otamning aytganini bajaramiz, ham amakimga şerik böladi, dastyorlik qiladi, qaraşadi musofir yerlarda...” Oqibatni qarang, “quloq” bölgan amakiga navqiron yigitni qöşib yuborişmoqçi.

“Katta Farğona kanali qurilarkan... Quşqönoq qişloğining yonidan ötarmiş. Bizning kolxozga Quşqönoq bilan Gumxona qişloqlari örtasidan joy tegibdi. Qazir ekanmiz. Ertaga borib öşa yerni körib kelaman... Keyin xotin-u erkak, butun kolxoz köçib boramiz. Vazifa qattiq...” Keyin esa kutilmaganda uruş boşlandi. “Rahmat rais yigitlarni frontga jönatiş taşvişlari bilan qöl-oyoği boğlangandi. Voyenkomatdan söraşib, odamning holjoniga qöyişmaydi. Çaqiriq borsa, uyidan qoçib ketadiganlar ham çiqib qolardi... Öttiz ikki yoşli otam uruşga jönaş haqida öylay boşladi”. Faqat raisga aytdiki, “Bahri xolaga yordam bering... Şu beçoraning bolasini olib qoling, aka! Uning işini ham bizga buyuring!” Keyin-çi? “Bir paytlar yuz kilo yukni dadil yelkaga kötara olgan, pisand qilmaydigan pahlavon otam, endi ramaqijon holda, ozib ketgan, nogiron bölib Beşkalga qaytib keldi”. Xöş, şu bilan hamma narsa “omon-omon” bölib ketdimikan? Qayda, deysiz. “Otamning peşanasida bor ekan, jöjabirday oilasidan ayrilib, Sibir degan Xudo qarğagan sovuq joylarda Kemerova viloyatining Stalino şahrida qamoq muddatini ötay boşladi...”

“Toşkentda köp binolar qurildi, ular zilzilada boşpanasiz qolgan oilalar uçun bunyod qilinişi belgilab qöyilgandi. Lekin köp uylarga yordam berişga kelgan quruvçilarning özlari joylaşib olganlari ham ma’lum böla boşladi”. “Yurt boşiga balolar yoğilişda davom etardi... Şarof Raşidov vafotidan keyin (bu siymo yurtga bir qalqon-u soyabon bölib turganligini keyin bildik) “Özbek işi”, “Paxta işi” degan uydirma, tuhmatlar boşlanib ketdi”...

Özbekiston xalq yozuvçisi Muhammad Ali qalamiga mansub “Umrlar gulşani” asarini öqir ekansiz, har bir inson taqdiri özi mansub bölgan xalq tarixi bilan çambarças boğliq ekanini yana bir bor anglab yetasiz. Adibning öz hayoti, ajdodlari, oilasi haqidagi har bir lavha sizga taniş tuyulişi ham şundan. Bir sulola taqdiriga xos bölgan voqealar xalqning umumiy tarixini töldiruvçi muhim fragmentlardir. “Roman-esse real voqealarga, aniq hujjatlarga asoslangan”, deya eslatib ötadi muallif. Kitobning har bir satrida tarix xulosalari bilan birga, bağrikeng va mehnatkaş, sodda va oliyjanob xalqimizga bölgan samimiy mehr tuyğulari yaqqol sezilib turadi.

“Erkin buva öşa Xizrni qidirardi. Agar bir odam bilan bir kunda ikki marta uçraşsa ham, har safar baribir boşmoldoqni tekşirib körardi... Men bilan körişganda ham buva neça bor boşmaldoğimni mahkam siqib körgan, lekin mendan Xizr çiqmagan”, deya lutf qiladi muallif bir örinda. “Beşkal” nomi bilan boğliq qişloq hazillariga e’tibor bering: “Odam Ota bilan Momo Havoning eng suyumli farzandlarigina kallik martabasiga erişganlar”, “Köplar qanday kal bölsam ekan, degan orzuda yuradi. Kallikni ham Xudo beradi! Hamma ham bunga erişavermaydi”, “Öşa aqlli odamning kimligini suriştirib körmadingizmi?.. Suriştirib köring, öşa albatta kal bölib çiqadi”... Bu söz öyinlarida kimningdir ustidan kuliş emas, aslo, avvalo, qadrdon qişloqqa bölgan farzandlik muhabbati mujassam ekanini sezasiz.

“Otam pişirgan oş” lavhasi ham öquvçiga zavq beradi. Ota farzand va nabiralar jam bölganidan şodlanib, “özim bir oş pişirib beray”, deb qolsa-ku. Topşiriqlar boşlandi: “öğlim, sen öt yoq”, “qizim, sen piyozni tayyorla”, “sen sabzini töğra”, “sen guruçni tozala”, “sen qozonni qözğab tur”, “suvni sol”, “ötni tort”, “tuzini körib ber”... Xullas, oşpaz qozon qolib, naq dunyoni qovurib yuboray deydi. Heç kimda tin yöq. Bir payt ota kapgirini topolmay qoldi. Qozonda göşt kuyib ketay deb turibdi. Ana endi köring tomoşani. Hamma sarosimada. Nihoyat, kapkir topildi – oşpaz uni özining belboğiga qistirib olgan ekan. Ota yengil tortib jilmaydi: “Yaxşiki, şu yerga qöyibman, bölmasa, yöqolib qolişi aniq edi”. Butun uy ahli aralaşgan oş tayyor böldi. Ota onaga aytdiki, “endi oşni özing suz, katta çarx tovoqqa solgin”. Oş mazali çiqqan, hamma otaga maqtov aytdi. Ota ham mamnun dedi: “Özing pişirgan oşga ne yetsin!..”

Taniqli adibimiz Muhammad Alining öz ajdodlari, ota-onasi taqdiriga, şu asno xalqimiz tarixiga atab bitgan qiziqarli asari – “Umrlar gulşani” roman-essesi “Yangi asr avlodi” naşriyotida ming nusxada naşr etildi.

Nigina ISKANDAROVA

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Boş muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.
Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan röyxatga olingan.

Adadi – 18 076
Şundan:
Kirill yozuvida – 6 509
Lotin yozuvida – 11 567
Media kuzatuvçilar – 90 284
Buyurtma: G – 1139
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Naşr körsatkiçi – 222.
Taşkilotlar uçun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Şuhrat Azizov
Navbatçi muharrir: Muhayyo Rustamova
Sahifalovçilar: Erkin Yodgorov, Nigora Toşeva



Manzilimiz:
Toşkent şahri,
Şayxontohur tumani,
Navoiy köçasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (93) 636-72-32
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Şarq” naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toşkent şahri,
Buyuk Turon köçasi, 41-uy.
Bosişga topşiriş vaqti: 21:00
Bosişga topşirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.
www.jadid.uz

Muassislar:
ÖZBEKISTON YOZUVÇILAR UYUŞMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QÖLLAB-QUVVATLAŞ VA RIVOJLANTIRIŞ JAMOAT FONDI
“ŞAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI